

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 101 (1700), 2026-yil 20-may, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



AVTOMOBILSOZLIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA USTUVOR VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-may kuni avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va tarmoq raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda avtomobilsozlik sohasi rivojiga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Bu tarmoq yuqori qo'shilgan qiymat, sanoat kooperatsiyasi, minglab ish o'rinlari va eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda O'zbekiston avtomobilsozlik sanoati raqobat va iste'molchi manfaatiga yo'naltirilgan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. O'n yil avval avtomobil bozori deganda bitta ishlab chiqaruvchi va uzoq navbatlar tushunilgan bo'lsa, bugungi kunda "Chevrolet", "BYD", "KIA" va "Hyundai" kabi yirik brendlar bilan hamkorlikda 5 ta avtomobil zavodi faoliyat yuritmoqda.

Eng muhimi, bu o'zgarishlarni aholi bevosita his qilmoqda. Bozorda tanlov kengaydi, uzoq navbatlar barham topdi. Joriy yilda avtomobil savdosiga 20 ta bank jalb qilinib, avtomobillarning 95 foizi bo'lib-bo'lib to'lash va qulay kredit tizimi orqali sotildi.

Ayni paytda qo'shni davlatlar uchun ham avtomobil va butlovchi qismlar ishlab chiqarish rivojlanmoqda. Soha atrofida yangi kooperatsiya zanjirlari shakllanib, 10 mingdan ortiq yoshlar zamonaviy texnologiyalar asosida ishlanmoqda. 300 dan ziyod korxonalar "Chevrolet", 40 ga yaqin korxonalar "KIA" va "BYD" uchun butlovchi qismlar yetkazib bermoqda.

Taqdimotda avtomobilsozlikda ishlab chiqarish hajmini va band bo'lganlar sonini 1 milliontaga yetkazish masalalari ko'rib chiqildi. Yengil va tijorat avtomobillarini ishlab chiqarish hamda yig'ish bo'yicha ko'plab loyiha takliflari kelib tushayotgani O'zbekistonda qulay investitsiya muhiti va yuqori daromadli bozor shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, har bir loyiha bozor talabi va iqtisodiy samara asosida baholanishi, asosiy e'tibor tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lishga qaratilishi zarurligi ta'kidlandi.

Taqdimotda "Volkswagen" avtomobillarini ishlab chiqarish loyihasi haqida axborot berildi. Rejaga ko'ra, birinchi bosqichda Toshkent shahrida yirik uzelli ishlab chiqarishni boshlash ko'zda tutilgan. Keyingi bosqichda Angren erkin iqtisodiy zonasida hududida to'liq siklda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, mahalliy lashtirish darajasini oshirish va eksport bozorlariga chiqish rejalashtirilgan.

Bugungi global vaziyat avtomobilsozlik sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani qayd etildi. Shu bois, texnologik mustaqillikni ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish va eksport hamda logistika cheklovlariga kamroq bog'liq bo'lgan raqobatbardosh milliy mahsulotlar yaratish vaqti kelgani ta'kidlandi.

Bu borada Andijon va Jizzaxda zamonaviy muhandislik maktablari ochilgani, yosh tadqiqotchilar va muhandislar shakllanayotgani, umuman, mahalliy mahsulotlarni kengaytirish va yakuniy mahsulot yaratish uchun zarur intellektual salohiyat mavjudligi ko'rsatib o'tildi.

Shu maqsadda "O'zavtosanoat" AJ tizimida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyati rivojlantirilishi belgilandi.


Sohadagi yana bir katta imkoniyat — ehtiyot qismlar bozori ekanini ta'kidlandi. Shu munosabat bilan ehtiyot qismlar bozorini tartibga solish, mahalliy mahsulotlar ulushini oshirish, sertifikatlash tizimini takomillashtirish va zamonaviy sinov laboratoriyalarini tashkil etish zarurligi qayd etildi. 2026-yil yakuniga qadar xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda avtomobil ehtiyot qismlar bozorini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish vazifasi qo'yildi.

Prezidentimiz avtomobilsozlik sanoati mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri ekanini ta'kidlab, sobada raqobatni kuchaytirish, mahalliy lashtirishni chuqurlashtirish, milliy muhandislik maktabini rivojlantirish yuzasidan aniq topshiriqlar berdi.

O'ZA

O‘ZBEKISTON URBANIZATSIYA SOHASINI TARAQQIYOTNING MUHIM YO‘NALISHI SIFATIDA BAHOLAMOQDA

Xorijiy ekspertlar O‘zbekiston Prezidentining 17-18-may kunlari Ozarbayjonga amaliy tashrifi va Bokuda bo‘lib o‘tgan Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasidagi ishtiroki yakunlari haqida.



O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-18-may kunlari amaliy tashrif bilan Ozarbayjonda bo'lib, BMTning aholi punktlari bo'yicha dasturi shafeligida o'tkazilgan Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasida konseptual nutq so'zledi.

Tadbirda Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov,

Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich, Bolgariya Prezidenti Iliana Yotova, Gruziya Bosh vaziri Irakli Kobaxidze, Qozog'iston Bosh vaziri Oljas Bektenov, BMTning aholi punktlari bo'yicha dasturi ijrochi direktori Anaklaudiya Rossbax, boshqa qator xorijiy davlatlar va hukumatlar rahbariyati, xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari rahbarlari ishtirok etdi.

Forumda asosiy e'tibor shaharlarni barqaror rivojlantirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash, shahar muhiti sifatini oshirish, iqlimga chidamlilikni mustahkamlash va uy-joyni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga qaratildi.

Davomi 2-beta

MAMLAKAT QUDRATI FUQAROLARNING ISHONCHI VA JAMIYATDAGI ADOLAT MEZONI BILAN O‘LCHANADI

Insoniyatning siyosiy va huquqiy tarixi tasdiqlaydiki, davlatning barqarorligi va qudrati uning tabiiy resurslari yoki harbiy salohiyati emas, balki fuqarolarning davlatga ishonchi va jamiyatdagi adolat mezoni bilan o'lchanadi.

Mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlarning ma'naviy-mafkuraviy asoslari tarixiy merosimiz bilan uyg'un holda shakllanmoqda. Xususan, Sohibqiron Amir Temurning "Kuch adolatdadir" tamoyili hamda Alisher Navoiyning xalqparvarlik va insonparvarlik g'oyalari bugungi taraqqiyot yo'lida zamonaviy va hayotiy mazmunda aks etmoqda. Ushbu qadriyatlar jamiyatda adolat, qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlashda ifodasini topib, davlat va jamiyat

rivojining muhim ma'naviy tayanchiga aylanmoqda.

Shu asnodda davlat apparatining qoliplashgan, faqat hisobotlarga asoslangan byurokratik tizimdan "Davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan konseptual yondashuvga o'tishi mamlakat boshqaruvida tarixiy burilish yaratdi.

Yangi O'zbekistondagi davlat xizmatini va jamiyat transformatsiyasini uchta asosiy tahliliy yo'nalishga ajratish mumkin: ijtimoiy-iqtisodiy

pragmatizm, institutsional meritokratiya va raqamli-ma'naviy sinergiya.

Aslida, ularning har biri borasida ko'z o'ngimizda sodir bo'layotgan yangilanishlarning real samalari misolida katta tahlillarni keltirish mumkin. Shunday bo'lsa-da, bu safar eng asosiy jihatlarga e'tibor qaratishni lozim topdik.

Birinchi yo'nalish — ijtimoiy-iqtisodiy pragmatizmga to'xtaladigan bo'lsak, keyingi yillarda barqaror rivojlanish bilan bog'liq o'lchov mezonlari o'zgarгани, raqamlardan real hayotga ko'chgani ko'ramiz.

Davomi 5-beta



JAHON MOLIYA SAHNASIDA: DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISHNING O‘ZGARAYOTGAN FALSAFASI

2026-yil 18-may Vatanimiz iqtisodiyoti tarixida alohida ahamiyatga ega sana sifatida qayd etildi. Chunki aynan shu kuni mamlakatimiz kapital bozori tarixidagi eng yirik IPO — Milliy investitsiya fondi (UzNIF) aksiyalarining xalqaro joylashuvi muvaffaqiyatli yakunlandi. Bu shunchaki moliyaviy operatsiya yoki texnik birja jarayoni emas, balki iqtisodiyotimizning dunyo moliyaviy tizimi bilan integratsiyalashuvidagi yangi bosqich, davlat aktivlarini boshqarish falsafasining o'zgarishi va mamlakatimiz investitsiya imijining sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarilishidir.

UzNIF aksiyalari bir vaqtning o'zida London fond birjasi va "Toshkent" respublika fond birjasida joylashtirilishi mamlakatimiz kapital bozori tarixida mutlaqo yangi sahifa ochdi. Shu tariqa UzNIF xalqaro IPOni amalga oshirgan ilk o'zbek emittenti sifatida iqtisodiyotimiz tarixidan o'r in oldi.

IPO yakunlari esa xalqaro investorlarning O'zbekiston iqtisodiyotiga yuqori ishonchi va qiziqishini yaqqol namoyon qildi.

Jumladan, 603,6 million dollar miqdorida investitsiya jalb etildi. Jamg'armaning bozor qiymati 1,95 milliard dollarga baholandi. Kapitalning 31 foizi ochiq

bozorda joylashtirildi. Investorlar talabi taklif hajmidan to'rt barobar yuqori bo'ldi va bitimning qariyb 97 foizi xalqaro investorlar hissasiga to'g'ri keldi.

Mazkur raqamlarning har biri mamlakatimiz iqtisodiyotida so'nggi yillardagi institutsional islohotlar xalqaro moliyaviy doiralarda tomonidan e'tirof etilayotganining amaliy tasdiqidir.

Shu o'rinda savol tug'iladi: IPO nima va nega u iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim? IPO — Initial Public Offering, ya'ni kompaniya aksiyalarining ilk bor ochiq bozorga chiqarilishi. O'ddiy qilib aytganda,

kompaniya o'zining muayyan qismiga egalik huquqini investorlarga taklif qiladi va evaziga kapital jalb etadi.

Rivojlangan iqtisodiyotlarda IPO iqtisodiy o'sishning muhim moliyaviy mexanizmidir. Chunki kompaniyalar davlat budjetidan tashqari manbalardan mablag' jalb qiladi va korporativ boshqaruv shaffoflashadi. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarga moslashib, bozor intizomi shakllanadi. Eng muhimi, aholi va investorlarning moliyaviy faolligi oshadi.

Davomi 3-beta

TURKIY MAKON INTEGRATSIYASI YOXUD MINTAQAVIY SAMMITNING KUN TARTIBI XUSUSIDA



Turkiy davlatlar tashkilotining Qozog'istonda bo'lib o'tgan norasmiy sammiti turkiy dunyo mamlakatlari o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni tizimlashtirish, ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan dolzarb taklif va tashabbuslar TDT doirasida mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish, o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Davomi 4-beta





O'ZBEKISTON URBANIZATSIYA SOHASINI TARAQQIYOTNING MUHIM YO'NALISHI SIFATIDA BAHOLAMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Yetakchilar sammitida O'zbekiston Prezidenti zamonaviy shaharsozlik siyosatini rivojlantirish va bu borada xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, "muvozanatli urbanizatsiya" tamoyillarini joriy etish, xalqaro "Aqlli va xavfsiz shaharlar alyansi"ni tashkil etish, BMT-Habitatning "Yashil shahar" xalqaro mukofotini ta'sis etish, shuningdek, Samarqandda uy-joy qurilishini moliyalashtirish masalalari borasida xalqaro forum o'tkazish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Mamlakatimizda uy-joy qurilishi, shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish va shaharlarning ekologik barqarorligini oshirish

Ilgar VELIZADE, ozarbayjonlik siyosatshunos va tahlilchi:

— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasi (WUF13) da ishtirok etish uchun Boku shahriga tashrif nafaqat O'zbekiston — Ozarbayjon munosabatlarini yanada mustahkamlash nuqtayi nazaridan, balki O'zbekistonda shaharsozlik siyosati transformatsiyasining muhim bosqichi sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Xan XUA,

Pekin xalqaro muloqot klubi bosh kotibi:

— Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasidagi jarayonlarni diqqat bilan kuzatayotgan xitoylik ekspertlar O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlar jadal va barqaror sur'atlarda rivojlanayotganini alohida qayd etmoqda.

Bu hamkorlik, avvalo, Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyevning qat'iy siyosiy irodasi va sa'y-harakatlari tufayli strategik sheriklik hamda ittifoqchilik darajasiga ko'tarildi.

Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar chinakam qardoshlik va o'zaro ishonch ruhida rivojlanmoqda. Shu bois, mamlakat yetakchilari deyarli har yili o'zaro tashriflar almashib, xalqaro maydonlarda ham muntazam uchrashuvlar o'tkazib kelmoqda. Bu esa hamkorlikning barcha yo'nalishlariga yangi sur'at bag'ishlamogda.

So'nggi yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayiriboshlash hajmi o'n barobar oshdi. Shu bilan birga, O'zbekistonda Ozarbayjon sarmoyasi ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni qariyb 500 taga yetdi.

bo'yicha keng ko'lami dasturlar doirasida O'zbekiston tajribasiga alohida e'tibor qaratildi. Keyingi yillarda mamlakatimizda uy-joy qurilishi hajmi sezilarli darajada oshgani, renovatsiya va ko'kalamzorlashtirish dasturlari amalga oshirilayotgani, shaharsozlikka zamonaviy yondashuvlar faol joriy etilayotgani ta'kidlandi.

"Yashil", "aqlli", "xavfsiz" va "15 daqiqali" shahar tamoyillariga asoslangan Yangi Toshkent megaloyihasi alohida taqdim etildi. Mamlakatimiz hududlarida ham shunday "Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etilayotgani, ular hududlarni kompleks rivojlantirish va aholi turmush sifatini oshirishga xizmat qilayotgani aytiladi.

Forum doirasida O'zbekiston yetakchisi Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich bilan

uchrashdi. Bundan tashqari, davlatimiz rahbari BMTning Aholi punktlari bo'yicha dasturi ijrochi direktori Anaklaudiya Rossbax bilan muzokara o'tkazdi.

Xorijiy ekspertlar fikricha, O'zbekistonning Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasidagi ishtiroki natijalari mamlakatning barqaror rivojlanish bo'yicha xalqaro kun tartibini ilgari surishdagi roli ortib borayotganini tasdiqladi hamda respublikada shaharsozlik va urbanizatsiya sohasidagi islohotlar samaradorligini namoyish etdi.

Shuningdek, O'zbekiston yetakchisining Bokuga tashrif ham nufuzli ko'p tomonlama forumda ishtirok etish, ham ikki tomonlama uchrashuvlar natijasida erishilgan kelishuvlar nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatli yakunlangani yuqori baholandi.

yuqori sur'atdagi rivojlanishni namoyon etmoqda. Keng qamrovli o'zgarishlar nafaqat Toshkent shahrida, balki mamlakatning boshqa hududiy markazlarida ham amalga oshirilmoqda. Bu jarayon yangi turar joylar va transport infratuzilmasini barpo etish bilan cheklanib qolmay, jamoat joylarini modernizatsiyalash, shahar boshqaruvini raqamlashtirish va zamonaviy shahar muhitini shakllantirishni ham qamrab olmoqda.

Shu bois, Shavkat Mirziyoyevning Butunjahon urbanizatsiya forumidagi ishtiroki tabiiy va mantiqiy qadam sifatida baholanmoqda. Toshkent uchun bunday nufuzli xalqaro anjumanlar ilg'or tajriba almashish, zamonaviy shaharsozlik yondashuvlarini o'rganish hamda O'zbekistonda global urbanizatsiya jarayonlariga yanada chuqur integratsiya qilish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Ozarbayjonning 2025-yil noyabr oyida Toshkent shahrida o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuviga taklif qilinishi va unda to'laqonli ishtirokchi sifatida qatnashishi ikki tomonlama munosabatlarda muhim voqea bo'ldi.

O'zbekiston Ozarbayjon hududi orqali Yevropaga yuk tashishni ta'minlaydigan Transkaspik xalqaro transport yo'lagi doirasida ko'shma loyihalarni amalga oshirishdan ham manfaatdor.

Shu nuqtayi nazaridan, davlat rahbarining Ozarbayjon Prezidenti taklifiga binoan Boku shahriga amaliy tashrif ikki tomonlama munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim va o'z vaqtidagi qadam sifatida baholanmoqda.

O'zbekiston Prezidentining Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasi doirasidagi Yetakchilar sammitida ishtiroki ham g'oyat ahamiyatlidir. Chunki shaharlarni barqaror rivojlantirish, aholini arzon va sifatli uy-joy bilan ta'minlash, iqlim barqarorligini mustahkamlash kabi masalalar Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bilan to'liq uyg'un hisoblanadi.

Karlos Uriarte SANCHES, Ispaniyadagi Umumevropa ittifoqi prezidenti, professor:

— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Boku shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasi doirasidagi Yetakchilar sammitidagi nutqi O'zbekiston bugungi kunda Yevroosiyo makonida barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat va zamonaviy urbanizatsiya transformatsiyasining faol tarafdorlaridan biriga aylanganini yana bir bor namoyon etdi.

Dunyo aholisi jadal o'sib, urbanizatsiya jarayonlari misli ko'rilgan sur'atlarda kechayotgan hozirgi sharoitda aynan Shavkat Mirziyoyev kabi yetakchilar xalqaro hamjamiyatga nafaqat global tahdidlarni anglash, balki ularni hal etish bo'yicha aniq va amaliy mexanizmlarni ham taklif qilmoqda. Uning nutqi chuqur strategik yondashuv, kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyat va barqaror hamda inkluziv rivojlanish tamoyillariga sodiqlikni yaqqol namoyon qildi.


Yangi O'zbekistonda uy-joy qurilishi va shahar infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi keng qamrovli islohotlar alohida e'tiborga loyiq. Yillik uy-joy qurilishi hajmi bir necha barobar oshirilgani, aholi uchun hamyonbop uy-joy dasturlariga katta mablag' yo'naltirilayotgani, norasmiy turar joylarni

Go'zal MAYTDINOVA, Geosiyosiy tadqiqotlar markazi direktori, tarix fanlari doktori, professor:

— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Bokuga tashrif nafaqat muhim diplomatik voqea, balki yangi Yevroosiyo taraqqiyot arxitekturasini shakllantirish sharoitida Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz davlatlarining urbanizatsiya siyosatini o'zgartirishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston yetakchisining BMT-Habitat shafeligida o'tkazilayotgan Butunjahon urbanizatsiya forumi (WUF-13) 13-sessiyasidagi ishtiroki O'zbekistonning barqaror shahar taraqqiyoti, iqlimga moslashish va shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha global kun tartibiga qo'shilish istagidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda respublika amalda Markaziy Osiyodagi eng keng ko'lami urbanizatsiya o'tishlaridan birini boshdan kechirmoqda. Agar 1990-yillar boshida urbanizatsiya darajasi 40 foiz atrofida bo'lsa, 2026-yilga kelib esa 51 foizga yetdi va shahar aholisi soni 20 million kishiga yaqinlashdi. Bu jarayonlar uy-joy



tartibga solishga qaratilgan qonunchilik bazasi shakllantirilgani va renovatsiya dasturlari amalga oshirilayotgani mamlakat rahbariyatining tizimli va ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat yuritayotganidan dalolat beradi.

Ayniqsa, Yangi Toshkent megaloyihasi Markaziy Osiyo taraqqiyotining yangi bosqichi ramziga aylanoqda. "Yashil", "aqlli", "xavfsiz" va "15 daqiqali shahar" tamoyillariga asoslangan mazkur loyiha eng ilg'or urbanizatsiya yondashuvlari o'zida mujassam etgan. Qiymati 25 milliard dollardan ortiq investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgani esa xalqaro hamkorlarning O'zbekiston iqtisodiy siyosati va sarmoyaviy salohiyatiga bo'lgan ishonchini ko'rsatadi.

Prezidentning ekologik barqarorlik va aholi turmush sifatini oshirishga qaratilgan tashabbuslari katta e'tirofga sazovor. Xususan, shaharlarni ko'kalamzorlashtirish darajasini 30



qurilishining misli ko'rilgan ko'lamlari bilan birga kechmoqda: faqat so'nggi sakkiz yil ichida mamlakatda 120 million kvadrat metrdan ortiq uy-joy foydalanishga topshirildi, qurilish ishlari hajmi esa o'n baravardan ziyod oshdi.

Shavkat Mirziyoyevning Bokuga tashrif Toshkent urbanizatsiyaga faqat ichki ijtimoiy-iqtisodiy jarayon emas, balki davlatning xalqaro raqobatbardoshligining muhim elementi sifatida qaralayotgan dalolat beradi. Zamonaviy shaharlar investitsiyalar, innovatsiyalar, transport oqimlari va inson kapitali markazlariga aylanoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston "aqlli shaharlar", "yashil" qurilish, boshqaruvni raqamlashtirish va kommunal infratuzilmani modernizatsiyalash sohalarida texnologiyalar, moliyaviy resurslar va ilg'or tajribalarni jalb qilish uchun xalqaro platformalardan foydalanishga intilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Bokuga tashrif O'zbekistonning xalqaro subyektligi kuchayib borayotganini ko'rsatadi. So'nggi yillarda

foizga yetkazishga qaratilgan "Yashil makon" va "Toza havo" dasturlari ekologik xavfsizlik hamda iqlim barqarorligiga mas'uliyatli yondashuv namunasidir.

Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Aqlli va xavfsiz shaharlar alyansi"ni tashkil etish tashabbusi ham dolzarb ahamiyatga ega. Bu taklif raqamli transformatsiyaning global tendensiyalariga mos kelib, shahar boshqaruv sohasida texnologiyalar, standartlar va ilg'or tajribalar almashish uchun muhim xalqaro platformani shakllantirishi mumkin.

Bundan tashqari, Samarqand shahrida uy-joy qurilishini moliyalashtirish masalalari bo'yicha xalqaro forum o'tkazish va BMT-Habitatning "Yashil shahar" xalqaro mukofotini ta'sis etish tashabbuslari O'zbekistonning barqaror rivojlanish bo'yicha global kun tartibini shakllantirishdagi faol rolini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, Prezidentning an'anaviy mahalliy o'zini o'zi boshqarish instituti — mahallaning ijtimoiy barqarorlik va jamoaviy hamjihatlikni ta'minlashdagi o'miga qaratayotgan e'tibori yuksak bahoga loyiq. Bu zamonaviy taraqqiyot yondashuvlari milliy qadriyat va tarixiy an'analar bilan uyg'unlashayotganini ko'rsatadi.

Ishonchim komilki, Shavkat Mirziyoyevning urbanizatsiya, barqaror rivojlanish va xalqaro hamkorlik sohasidagi tashabbuslari global barqarorlikni mustahkamlash, aholi turmush sifatini yuksaltirish hamda kelajakning zamonaviy, xavfsiz va ekologik barqaror shaharlarini shakllantirishga xizmat qilishda davom etadi.

respublika o'zini Markaziy Osiyoning iqtisodiy va infratuzilmaviy o'zgarishlar markazlaridan biri sifatida ko'rsatishga intilib, global tashabbuslardagi ishtirokini sezilarli darajada faollashtirdi.

Toshkentning jahon urbanizatsiya kun tartibiga qo'shilishi mintaqa rivojining chekka modelidan xalqaro iqtisodiy va texnologik jarayonlarni shakllantirishda yanada faolroq ishtirok etishga bosqichma-bosqich o'tishini anglatadi. Uzoq muddatli istiqbolda forum natijalari mintaqa davlatlarining shaharlarni rivojlantirish, uy-joy siyosati va barqaror infratuzilma sohasidagi milliy strategiyalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Markaziy Osiyo uchun bu, ayniqsa, jadal demografik o'sish va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasining o'zgarishi davom etayotgan sharoitda muhimdir.



O'zbekiston Prezidentining Ozarbayjonga tashrif xalqaro tadbirga protokol ishtiroki doirasidan ancha tashqariga chiqadi. U Yevroosiyaning yangi urbanizatsiya va modernizatsiya kun tartibi shakllanishini aks ettiradi, unda shaharlar iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish va mintaqaviy hamkorlikning asosiy markazlariga aylanoqda.

"Dunyo" AA

GLOBAL BARQARORLIK, IJTIMOYIY TENGLIK VA IQTISODIY O'SISH ASOSI



Munosabat

Bugungi xalqaro munosabatlar tizimida davlatlar nufuzi faqatgina iqtisodiy yoki harbiy salohiyat bilan emas, balki ochiqlik siyosati, inson huquqlariga munosabati, global tashabbuslardagi ishtiroki bilan ham belgilanmoqda. Bu borada O'zbekiston dunyoga namuna bo'layotir. Ayniqsa, mamlakatimizda kechayotgan ochiqlik siyosati, keng qamrovli islohotlar va inson manfaatini ustuvor qo'yg'an davlat boshqaruv barcha xalqaro tuzilmalar bilan munosabatlarning yangi davrini boshlab berdi.

O'zbekiston BMTga a'zo davlat sifatida ko'p yillar davomida chegaralari va sanoqli yo'nalishlarda hamkorlik qildi. Keyingi davrda bu hamkorlik ko'lami nafaqat kengaytdi, balki uning natijasi amaliy hayotga ko'chdi. Yana ham aniqroq aytganda, 2016-yildan keyingi davr O'zbekiston — BMT munosabatlarida tom ma'noda burilish nuqtasi bo'ldi.

Chunki aynan shu yillardan mamlakatimiz tashqi siyosatida ochiqlik, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlar va xalqaro tashkilotlar bilan faol muloqotga ustuvor ahamiyat qaratila boshlandi.

Xalqaro sammit va forumlar doirasidagi uchrashuvlar, global va mintaqaviy masalalar O'zbekiston va BMT o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi ko'shma loyihalarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan harakatlarga yangi kuch bermoqda.

Ayni paytda hamkorlikda 160 ta ko'shma dastur va loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 13 ta maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Shuningdek, mamlakatimiz BMTning 26 ta tuzilmasi bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yg'an.



Abduraim ULUG'OV, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Ayniqsa, BMTning Aholi punktlari bo'yicha dasturi bilan hamkorlik barqaror urbanizatsiya, zamonaviy shaharsozlik va aholi turmush sifatini yaxshilash borasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boisi, tashkilotning asosiy maqsadi shaharlarni barqaror rivojlantirish, aholini munosib uy-joy bilan ta'minlash hamda yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan.

Mamlakatimiz yetakchisi Prezidentlik faoliyatiga kirishgan ilk kunidan boshlab qabul qilingan qaror va dasturlarning mohiyati ham ayni maqsadni o'zida ifoda etadi. Ahamiyatlisi, bugun ularning natijasini yurtdoshlarimiz o'z hayotida his etmoqda.

So'nggi yillarda aholi soni muntazam oshib borishi uy-joy islohotlari samaradorligini jadalashtirishni taqozo etmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda aholining o'rtacha o'sish tendensiyasi yillik ikki foizni tashkil etmoqda. Shundan kelib chiqib, yurtimiz qurilish bozori talaba mos jadal rivojlanyapti. Biroq bu jarayonda uy-joylar narxini maqbullashtirish, aholi manfaatlarini himoya qilish dolzarb masalaga aylanyapti. Davlatimiz rahbari bu borada qator tashabbus va g'oyalarni ilgari surmoqda.

O'tgan yillar mobaynida mamlakatimizda 647 ming xonadonli 15 mingdan ortiq ko'p qavatli uy-joy barpo etildi. Qurilish hajmi 2016-yildagidan 10 barobardan ko'proqqa oshdi. Joriy yil hududlarda yana 140 ming xonadonli ko'p qavatli uylar foydalanishga topshiriladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda urbanizatsiya, ya'ni shaharlashtirish darajasi 51 foizga, ya'ni shaharlarda istiqomat qilayotgan aholi soni 20 millionga yetdi. Urbanizatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlab, "Yangi O'zbekiston" massivlarini barpo etish ishlarni izchil davom ettirgan holda uy-joy fondida zamonaviy uy-joylar ulushi 2040-yilga qadar 50 foizga yetkaziladi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon rahbari Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 17-18-may kunlari amaliy tashrif bilan Boku shahrida bo'ldi. Davlatimiz rahbari 18-



may kuni BMTning Aholi punktlari bo'yicha dasturi shafeligida o'tgan Jahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasida ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Mazkur forum o'z ahamiyatiga ko'ra, barqaror taraqqiyotni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbari ilgari surgan qator taklif va tashabbuslar ayni sohadagi dolzarb muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Bugun dunyoda qariyb 3 milliard inson birlamchi yashash sharoitlaridan mahrum. Ularning bir milliarddan ziyodi norasmiy turar joylar va xarobalarda kun kechirmoqda, 300 milliondan ortiq odam esa umuman boshpanaga ega emas. Iqlim o'zgarishlari, tahlikali xalqaro vaziyat va iqtisodiy

inqirozlar global migratsiyaning yangi to'liqlarini paydo qilib, davlatlar va shaharlar o'rtasida aholining qayta taqsimlanishiga olib kelmoqda. Oddiy qilib aytganda, urbanizatsiya jarayonlari global barqarorlik va xavfsizlikka to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi jiddiy omilga aylanoqda.

Bulaming barchasi hammamizdan qat'iy va kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rishni talab qilmoqda", dedi Prezidentimiz.

Ta'kidlanganidek, bugun barcha hududlarda aholi uchun teng yashash sharoitlarini yaratish kichik va o'rtacha shaharlarni uyg'un rivojlantirishni talab qilmoqda. Shu sababli O'zbekiston yetakchisi hamkor davlatlarni shaharlarni rivojlantirishda "mutanosib urbanizatsiya" tamoyilini keng joriy etishga chaqirdi.




Sharh

O'ZBEK "IPO"SI

JAHON-MOLIYA SAHNASIDA:

UzNIF aksiyalarining London fond birjasida joylashtirilishini mamlakatimiz moliya bozori tarixidagi muhim voqealardan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Chunki London fond birjasi nafaqat Yevropaning, balki butun jahonning eng yirik va nufuzli moliyaviy platformalaridan.

DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISHNING O'ZGARAYOTGAN FALSAFASI



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi, iqtisodiy fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Biz uchun esa IPOning ahamiyati yanada katta. Sababi, mamlakatimiz iqtisodiyoti uzoq yillar davomida asosan davlat ishtirokidagi iqtisodiy modelga tayanib keldi. Bu model muayyan bosqichda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlagan bo'lsa-da, kapital samaradorligi, korporativ boshqaruv va investitsiyaviy raqobat nuqtayi nazaridan cheklangan imkoniyatlariga ega edi.

So'nggi yillarda esa mamlakatimiz rahbariyati tomonidan iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy sektor ulushini oshirish va kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar o'tkazildi. UzNIF IPOsi aynan shu siyosatning mantiqiy davomi.

UzNIF mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridagi 13 ta yirik davlat aktivini birlashtirgan tuzilma. Fond tarkibiga energetika, transport, telekommunikatsiya, kommunal infratuzilma va bank sohasidagi muhim aktivlar kiritilgan. Investorlar bitta kompaniya aksiyasini emas, balki butun mamlakat iqtisodiyotining asosiy infratuzilmaviy segmentlariga bog'langan diversifikatsiyalangan portfelnii sotib olmoqda.

Bu model xalqaro investorlar uchun bir necha jihatdan jozibador. Birinchidan, risklar diversifikatsiya qilinadi. Ya'ni bir tarmoqdagi muammo boshqasidagi o'sish hisobiga qoplanishi mumkin. Ikkinchidan, mamlakatimiz iqtisodiyotining umumiy o'sishi fond aktivlari qiymatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, strategik infratuzilma aktivlari odatda uzoq muddatli barqaror daromad manbai bo'ladi. To'rtinchidan, bunday fond modeli davlat aktivlarini to'g'ridan to'g'ri emas, balki professional boshqaruv orqali bozorga olib chiqish imkonini beradi.

Mazkur jihatlar UzNIFni oddiy xususiy lashtirish jarayonidan ajratib ko'rsatadi. Aslida, davlat aktivlarini zamonaviy investitsiya ekotizimiga integratsiya qilish mexanizmi hisoblanadi.

UzNIF aksiyalarining London fond birjasida joylashtirilishini mamlakatimiz moliya bozori tarixidagi muhim voqealardan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Chunki London fond birjasi nafaqat Yevropaning, balki butun jahonning eng yirik va nufuzli moliyaviy platformalaridan. Ushbu bozorga chiqish har qanday kompaniya uchun katta imkoniyatlar bilan birga yuksak mas'uliyat va qat'iy talablarni ham anglatadi.

Xususan, bunday xalqaro maydonda faoliyat yuritish uchun emitent moliyaviy hisobdarning xalqaro standartlariga to'liq muvofiq ishlashi, korporativ boshqaruv tizimida shaffoflikni ta'minlashi, mustaqil audit xulosalariga ega bo'lishi, investorlar huquqlarini ishonchli himoya qilishi hamda ochiq axborot siyosati yuritishi talab etiladi. Bu esa kompaniyaning faqat ichki bozor talablariga emas, balki global moliya tizimida qabul qilingan zamonaviy boshqaruv mezonlariga ham moslasha olishini ko'rsatadi.

Muhimi, mazkur jarayon mamlakatimiz iqtisodiyotining xalqaro kapital bozorlariga integratsiyasi tobora chuqurlashayotganini namoyon etmoqda. Shu ma'noda, UzNIFning London fond birjasidagi ishtiroki nafaqat bir kompaniyaning muvaffaqiyati, balki yurtimizda ochiq iqtisodiyot, investitsiyaviy jozibadorlik va korporativ islohotlar yangi bosqichga ko'tarilayotganining amaliy ifodasidir.

Bu yerda yana bir muhim jihatga e'tibor qarantish lozim. Xalqaro investorlar, ayniqsa, yirik institutsional investorlar muayyan bozorga faqat barqarorlik, shaffoflik va ishonch muhiti yetarli darajada shakllanganligiga kirib boradi. Zero, bunday moliyaviy institutlar milliardlab dollarlik aktivlarni boshqaradi va investitsiya qarorlarini qabul qilishda risklarni o'ta sinchkovlik bilan baholaydi.

Shu nuqtayi nazaridan qaraganda, IPO jarayonida "BlackRock", "Franklin Templeton" hamda "Redweh" kabi nufuzli xalqaro investitsiya kompaniyalarining ishtiroki

mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim ishonch indikatori sifatida baholanadi. Bu, bir tomondan, mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar va korporativ boshqaruv tizimi xalqaro moliya bozori ishtirokchilari tomonidan ijobiy qabul qilinayotganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, O'zbekistonning global kapital bozorlaridagi investitsiyaviy nufuzi tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro investorlar nega yurtimizga qiziqmoqda? Masalaning eng muhim nuqtasi aynan shu savol bilan bog'liq. Bugun global kapitalning mamlakatimiz bozoriga e'tibor qarataётгани tasodifiy holat emas. Buning ortida iqtisodiyotimizda so'nggi yillardagi tizimli islohotlar va shakllanayotgan yangi iqtisodiy muhit turibdi.

Avvalo, iqtisodiy liberallashuv jarayoni xalqaro investorlar uchun muhim signal bo'ldi. Valyuta bozorining erkinlashtirilishi, tashqi savdo cheklolarining bosqichma-bosqich qisqartirilishi, xususiy sektor uchun imkoniyatlar kengayishi hamda bozor mexanizmlarining kuchayishi mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirdi. Zero, har qanday investor kapital kiritishdan oldin iqtisodiy qoidalarining barqarorligi, bozor munosabatlarining ochiqligi va davlat siyosatining prognoz qilina olish darajasiga e'tibor qarataди. Yurtimizda aynan shu yo'nalishda muhim institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi.

Ikkinchi muhim omil — makroiqtisodiy barqarorlik. Jahon iqtisodiyotida turbulentsliklar kuchaygan sharoitda ham mamlakatimizda yuqori iqtisodiy o'sish sur'ati saqlanib qolayotgani xalqaro moliya institutlari va investorlar e'tiborini tortmoqda. Infratuzilma loyihalarining kengayishi, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ichki bozor hajmining o'sishi hamda investitsiyaviy faollashgan o'rtasini bizi Markaziy Osiyodagi eng ishtiqobli iqtisodiyotlardan biri sifatida ko'rsatmoqda.

Uchinchi omil mamlakatimizning demografik salohiyati bilan bog'liq. Aholimizning katta qismi yoshlardan iborat bo'lib, mehnatga layoqatli qatlam ulushi yuqori. Bu esa, bir jihatdan, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasi uchun keng mehnat resurslarini ta'minlasha, ikkinchi tomondan, ichki iste'mol bozorining uzoq muddatli o'sishini kafolatlaydi. Xalqaro investorlar aynan shunday katta va o'sib borayotgan bozorlarni strategik yo'nalish sifatida baholaydi.



To'rtinchi omil — geoiqtisodiy o'rnimiz. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan mamlakatimizga transport, logistika va savdo yo'laklari kesishgan muhim hudud sifatida qaralmoqda. Keyingi yillarda temir yo'l, avtomobil yo'llari, quuruqliq portlari va mintaqaviy tranzit infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar mamlakatimizning iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bu esa O'zbekistonning nafaqat ichki bozor, balki mintaqaviy xab sifatidagi jozibadorligini ham ta'minlaydi.

Beshinchi muhim omil — davlat aktivlarini transformatsiya qilish va korporativ islohotlarni chuqurlashtirish siyosati. Ayniqsa, davlat ishtirokidagi yirik korxonalarda korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish, moliyaviy hisobdarda shaffoflikni kuchaytirish, mustaqil audit amaliyotini kengaytirish va xalqaro konsalting institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish investorlar ishonchini mustahkamlamoqda. Chunki global kapital uchun faqat bozor hajmi emas, balki korporativ boshqaruv sifati va investitsiya xavflarining boshqarilishi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekistonga qiziqish qisqa muddatli konyunktura emas, balki mamlakatimiz iqtisodiyotida shakllanayotgan yangi institutsional muhitning natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jenni Jonsonning bayonotida ham aynan shu jihatga alohida urg'u berildi. Uning ta'kidlashicha, O'zbekiston hukumati bilan davlat korxonalarida samarali korporativ boshqaruv tizimini joriy etish, moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish va mahalliy kapital bozorini rivojlantirish borasidagi hamkorlik xalqaro investorlarda ishonch uyg'otmoqda. Bu esa mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar global moliya institutlari tomonidan ijobiy baholanayotganini ko'rsatadi.

UzNIF IPOsini oddiy moliyaviy operatsiya sifatida baholash to'g'ri bo'lmaydi. Mazkur

jarayon mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun uzoq muddatli institutsional ahamiyatga ega muhim qadam. Chunki gap faqat aksiyalar joylashtirish yoki kapital jalb qilish haqida emas, balki O'zbekiston iqtisodiyotida yangi moliyaviy infratuzilma va bozor munosabatlarini shakllantirish haqida bormoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ko'p yillar davomida bank kreditlari asosiy moliyalashtirish manbai bo'lib keldi. Natijada iqtisodiy faollashgan katta qismi bank tizimiga bog'lanib qoldi va moliyaviy risklar ham asosan shu sektor zimmasiga tushdi. Bu esa iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligi nuqtayi nazaridan muayyan cheklolarni yuzaga keltirishi mumkin. Rivojlangan davlatlar tajribasida esa kapital bozoriga iqtisodiyotning eng muhim moliyaviy mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Kompaniyalar aksiya, obligatsiya va boshqa moliyaviy instrumentlar orqali to'g'ridan to'g'ri investorlardan mablag' jalb qiladi. Bu esa iqtisodiyotda moliyalashtirish manbalarini

diversifikatsiya qilish, raqobat muhitini kuchaytirish va xususiy kapital harakatini faollashtirish imkonini beradi.

Shu ma'noda, UzNIF IPOsi mahalliy kapital bozori uchun yangi bosqichni boshlab bermoqda. Avvalo, bozorda likvidlik darajasi oshadi, investorlar bazasi kengayadi va yangi emitentlar uchun amaliy namuna shakllanadi. Eng muhimi, aholining investitsiya madaniyati rivojlanib, moliyaviy instrumentlarga qiziqishi ortadi. Bu esa kelgusida milliy kapital bozorining chuqurlashuvi uchun mustahkam zamin yaratadi.

IPO jarayonining yana bir muhim natijasi davlat ishtirokidagi kompaniyalarda bozor intizomining shakllanishidir. Chunki ochiq bozorga chiqqan har qanday kompaniya investorlar, auditorlar va moliya bozori ishtirokchilari oldida doimiy hisobdor bo'ladi. Bu esa, birinchi navbatda, xarajatlarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va korporativ qarorlar qabul qilish sifatiini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, moliyaviy shaffoflik kuchayadi, mustaqil audit amaliyoti mustahkamlanadi hamda investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari takomillashadi.

Eng muhimi, davlat aktivlarini bozor tamoyillari asosida boshqarish amaliyoti kengayib, iqtisodiyotda raqobat muhiti va xususiy kapital ishtiroki ortadi. Bu esa milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishning muhim omillaridan.

Bozor mexanizmining joriy etilishi davlat aktivlaridan yanada samarali foydalanishga undaydi. Chunki ochiq bozor sharoitida kompaniya faoliyati faqat davlat nazorati emas, balki investorlar, tahlilchilar va xalqaro moliya institutlari tomonidan ham mutazam baholab boriladi. Bu esa boshqaruv intizomini kuchaytiradi, xarajatlarni optimallashtiradi va resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

IPOning muvaffaqiyatli o'tishi xalqaro reyting agentliklari va investitsiya fondlari uchun muhim signal. Zero, bozorda baholangan aktivlar mamlakat iqtisodiyoti haqida ancha obyektiv tasavvur hosil qiladi. Buning o'zi investorlar uchun ishonch darajasini oshiradi.

Talabning taklifdan to'rt barobar yuqori bo'lgani esa xalqaro investorlar O'zbekiston aktivlariga katta qiziqish bildirganini yaqqol ko'rsatdi. Bunday ko'rsatkich mamlakatimizning investitsiya imjisi mustahkamlanib borayotgani va iqtisodiy islohotlar tashqi bozorlarda ijobiy qabul qilinayotganini anglatadi.

Jenni Jonson ta'kidlaganidek, UzNIF IPOsi boshqa kompaniyalar uchun ham muhim yo'l ochuvchi tajriba bo'lishi mumkin. Bu juda muhim jihat. Chunki muvaffaqiyatli IPO mexanizmi keyingi bosqichda yirik davlat kompaniyalarining xalqaro bozorga chiqishi, xususiy sektor uchun yangi moliyalashtirish manbalari paydo bo'lishi va mahalliy fond bozorining chuqurlashuvi zamin yaratadi.

Shu bilan birga, bunday jarayon Toshkentning mintaqaviy moliyaviy markaz sifatidagi mavqeiini ham mustahkamlaydi. Nega talab to'rt barobar yuqori bo'ldi? IPOga talabning taklifdan to'rt barobar yuqori bo'lishi alohida tahlil talab qiladi. Bu, avvalo, xalqaro kapitalning yangi o'sish bozorlarini izlayotgani bilan izohlanadi. Jahonda an'anaviy bozorlarda o'sish sur'ati sekinlashib borayotgan bir sharoitda investorlar istiqbolli rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga e'tiborni kuchaytirmoqda.

Markaziy Osiyo bu jihatdan hali to'liq ochilmagan bozor sifatida baholanadi. Mamlakatimiz esa aholi soni, ichki bozor hajmi, tabiiy resurslari, strategik geografik joylashuvi va islohotlar sur'ati bilan mintaqada ajralib turadi. Investorlar aynan shu uzoq muddatli salohiyatni ko'rmoqda va unga kapital yo'naltirmoqda.

Bundan tashqari, global investorlar infratuzilma va davlat aktivlari bilan bog'liq investitsiyalarga alohida qiziqish bildiradi. Chunki bunday aktivlar, odatda, iqtisodiy sikllar ta'siriga nisbatan barqarordir. Energetika, transport, kommunikatsiya va yirik sanoat obyektlari kabi sohalarga uzoq muddatli daromad manbai sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazaridan, yurtimizda davlat aktivlarini transformatsiya qilish jarayoni xalqaro kapital uchun muhim investitsiya imkoniyatlarini shakllantirmoqda.

IPOda ishtirok etgan investorlarning 97 foizi xalqaro investorlar hissasiga to'g'ri kelgani ikki muhim xulosani anglatadi. Avvalo, bu ko'rsatkich O'zbekiston iqtisodiyotiga nisbatan tashqi ishonch yuqori darajaga ko'tarilayotganini ko'rsatadi. Ya'ni xalqaro moliya bozori ishtirokchilari mamlakatimizning uzoq muddatli iqtisodiy salohiyatini ijobiy baholamoqda.

Biroq mazkur raqam ikkinchi muhim masalani ham ochib beradi. Ya'ni mahalliy institutsional investorlar bozori hali yetarlicha shakllanmagan. Rivojlangan mamlakatlarda IPO jarayonida pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya va pay jamg'armalari kabi yirik ichki institutlar faol ishtirok etadi. Ular ichki kapital bozorining barqaror tayanchidir. Yurtimizda esa bunday institutlar hali rivojlanish bosqichida turibdi. Shu bois, kelgusida mahalliy institutsional investorlarni shakllantirish strategik vazifalardan biriga aylanadi. Xususan, aholi mablag'larini kapital bozoriga kengroq jalb qilish, moliyaviy savdovxonlikni oshirish, pensiya va investitsiya jamg'armalari faoliyatini rivojlantirish hamda uzoq muddatli ichki kapital manbalarini ko'paytirish juda muhim.

Har qanday yirik iqtisodiy islohot singari IPO jarayoni ham muayyan risk va chaqiriqlardan xoli emas. Chunki xalqaro kapitalni jalb qilishning o'zi kamlik qiladi. Eng muhimi — ushbu ishonchni uzoq muddat saqlab qolish. IPOdan keyin investorlar endi bayonotlar yoki islohotlar haqidagi ertajalarni emas, balki real natijalarni kuzatadi. Xalqaro bozorda kompaniya qiymati, birinchi navbatda, uning samaradorligi,

shaffofligi va boshqaruv sifati bilan baholanadi.

Agar kompaniyalarda samaradorlik oshmasa, moliyaviy shaffoflik ta'minlanmasa, davlat aralashuvi yuqori darajada saqlanib qolsa yoki menajment mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, investorlar ishonchi pasayishi mumkin. Bu esa kelgusida kapital jalb qilish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu ma'noda, IPO islohotlarning yakuni emas, balki ularning yangi va ancha mas'uliyatli bosqichidir. Chunki ochiq bozorga chiqqan kompaniya endi global investorlar oldida doimiy ravishda o'z samaradorligi va boshqaruv sifati bilan hisobdor bo'ladi.

Kapital bozori bir marta o'tkazilgan IPO bilan shakllanib qolmaydi. Unga xizmat qiladigan butun bir institutsional muhit zarur. Agar shu muhit bo'lmasa, hatto muvaffaqiyatli deb baholangan joylashtiruv ham uzoq muddatli samara bermasligi mumkin.

Kapital bozorini barqaror rivojlantirish uchun quyidagi shartlar hal qiluvchi ahamiyatga ega: kuchli brokerlik tizimi, mustaqil audit amaliyoti, yuqori sifatli tahlil maktabi, ishonchli huquqiy himoya, sud tizimining samaradorligi hamda korporativ axborotning oshkorligi. Bu omillar o'zaro uzviy bog'liq. Ularidan biri zaif bo'lsa, bozor butunlay muvozanatini yo'qotishi mumkin.

UzNIF IPOsi birinchi qadam, xolos. Asosiy vazifa endi shu bitimni alohida voqea emas, balki kapital bozorini tizimli ravishda shakllantirish jarayonining boshlanishi sifatida davom ettirishdir.

Global moliyaviy bozorlar tabiatan juda o'zgaruvchan. Geosiyosiy ziddiyatlar, markaziy banklarning foiz stavkalari bo'yicha qarorlari, energiya narxlarini, xomashyo bozorlaridagi tebranshlar va ehtimoliy global resessiya xavflari rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Demak, tashqi



muhitdagi har bir siljish investitsiya oqimlariga ham, bozor kayfiyatiga ham ta'sir etmasdan qolmaydi.

Biz uchun eng muhim vazifalardan biri makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va tashqi shoklarga chidamli iqtisodiy modelni mustahkamlashdir. Investor kapitalni barqarorlikka tikishni istaydi, agar ushbu barqarorlik zaiflashsa, eng jozibali aktiv ham qiziqishni yo'qotishi mumkin. Shuning uchun investitsiyaviy jozibadorlikni saqlab qolish faqat bir martalik muvaffaqiyat emas, balki doimiy iqtisodiy intizomni talab qiladi.

UzNIF IPOsi yana bir strategik savolni kun tartibiga olib chiqdi. O'zbekiston kelajakda Markaziy Osiyoning moliyaviy markazlaridan biriga aylana oladimi? Bu savol ortiqcha emas. Aksincha, u mamlakatimizning keyingi iqtisodiy trayektoriyasi qaysi tomonga burilishini belgilaydi.

Bu maqsadga erishish uchun bir nechta zarur shart mavjud. Birinchidan, kapital bozori chuqur va likvid bo'lishi kerak. Ya'ni bozorda bitimlar ko'p, ishtirokchilar turli va aktivlar erkin sotilib-sotib olinadigan muhit shakllanishi lozim. Likvidlik bo'lmagan joyda moliyaviy markaz haqida gapirish qiyin.

Ikkinchidan, huquqiy tizim investor uchun ishonchli bo'lishi shart. Investor o'z kapitali himoya qilinishiga ishonmasa, hech qanday imtiyoz yoki reklama uni bozorda uzoq muddat ushlab tura olmaydi. Shu bois, huquq ustuvorligi moliyaviy markazning asosiy tayanclaridan.

Uchinchidan, xalqaro moliyaviy institutlar va investitsiya banklari uchun qulay muhit yaratilishi zarur. Bu faqat regulyator yengilligi degani emas. Bu qoidalarining aniqligi, bozorga kirish va chiqish mexanizmlarining soddaligi, axborot ochiqligi va institutsional barqarorlik degani.

To'rtinchidan, milliy valyuta barqarorligi va iqtisodiy prognozlanuvchanlik ta'minlanishi shart. Valyutadagi keskin tebranshlar kapitalning uzoq muddatli qarorlarini zaiflashtiradi. Shu sabab moliyaviy markaz faqat texnik infratuzilma emas, balki ishonchli makroiqtisodiy muhit bilan ham baholanadi.

Beshinchidan, inson kapitali yetarli darajada shakllanishi kerak. Moliyaviy tahlilchilar, investitsiya bankirlari, korporativ huquqshunoslar, risk-menejerlar, audit va kompaniyas mutaxassislari qatlami kengaymas ekan, moliyaviy markazning mazmunli poydevori bo'lmaydi.

Shu nuqtayi nazaridan, UzNIF IPOsi Toshkentni moliyaviy markazga aylantirish yo'lidagi birinchi yirik qadam sifatida baholanishi mumkin. Ammo bu qadamning qiymati shundaki, u keyingi islohotlar uchun mezon ham, sinov ham bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni endi masala bir bitimda emas, balki butun tizimni ishlaydigan holatga keltirishda.

Kapital bozorining rivojlanishi faqat yirik investorlar manfaatini talab qilmaydi. Uning ta'siri keng jamoatchilik hayotiga ham bevosita yetib boradi. Zero, samarali kapital bozori aholi jamg'armalari iqtisodiyotga yo'naltirish, biznes uchun qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini yaratish va mamlakatning umumiy iqtisodiy dinamikasini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Uzoq muddatli istiqbolida bunday jarayonlar quyidagi ijobiy natijalarni beradi: aholining investitsiya qilish madaniyati shakllanadi, shaxsiy jamg'armalar iqtisodiyotga jalb etiladi, biznes uchun nisbatan arzon kapital manbalari paydo bo'ladi, yangi ish o'rinlari ochiladi va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish sur'ati tezlashadi. Eng muhimi, iqtisodiyot davlatga qattiq bog'langan iqtisodiy tartibdan bozor tamoyillariga tayanadigan iqtisodiyotga, yopiqlikdan global

Qisqasi, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi davr boshlanmoqda. UzNIF IPOsini oddiy moliyaviy bitim sifatida baholash yetarli emas. Bu mamlakatimiz iqtisodiyotida yangi model shakllanayotganining yaqqol belgidir. Mazkur model davlatga qattiq bog'langan iqtisodiy tartibdan bozor tamoyillariga tayanadigan iqtisodiyotga, yopiqlikdan global

integratsiyaga, ma'muriy boshqaruvdan korporativ boshqaruvga hamda budget mablag'lariga suyangan moliyalashtirishdan investitsiyaviy moliyalashtirishga o'tishni anglatadi.

Albatta, oldinda hal qilinishi lozim bo'lgan murakkab vazifalar kam emas. Biroq eng muhim natija shundaki, O'zbekiston xalqaro kapital bozori xaritasida o'z o'rnini ko'rsatdi. London fond birjasidagi IPO mamlakatimizning investitsiyaviy imijiga, iqtisodiy islohotlariga va strategik transformatsiya jarayoniga berilgan jiddiy xalqaro baho bo'ladi.

Global investorlar endi yurtimizga faqat xomashyo manbasi yoki iste'mol bozori sifatida emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy hamkor sifatida qaramoqda. Aynan shu nuqta UzNIF IPOsining haqiqiy tarixiy ahamiyatini belgilab beradi.



Ja'far XIDIROV,
Iqtisodiy tadqiqotlar va
islohotlar markazi sho'ba
mudiri

Boshlanishi 1-betda

Tashkilot makonida 170 milliondan ortiq aholi yashaydi va u katta iqtisodiy salohiyatga ega. 2025-yilda TDT mamlakatlarining umumiy iqtisodiy salohiyati 2,4 trillion dollardan oshdi, bu jahon iqtisodiyotining qariyb 2 foizini tashkil etdi. Xarid qobiliyati pariteti bo'yicha bu ko'rsatkich 6,2 trillion dollardan oshib, jahon YIMining 3,4 foiziga teng bo'ldi. Tashkilotga a'zo davlatlarning umumiy tashqi savdo aylanmasi esa 1,2 trillion dollardan oshdi.

TDT mamlakatlaridagi tasdiqlangan gaz zaxiralari taxminan 19,9 trillion kub metrni, neft zaxiralari esa 38,2 milliard barrellni tashkil etadi. Bu esa mintaqani Yevroosiyoing yirik energetika markazlaridan biriga aylantiryapti.

Turkiya makon iqtisodiyotlari yuqori darajada o'zaro bir-birini to'ldirishi bilan ajralib turadi. Turkiya va Vengriya rivojlangan sanoat hamda mashinasozlik bazasiga ega bo'lsa, Qozog'iston, Ozarbayjon va Turkmaniston yirik energetika resurslariga ega. O'zbekiston va Qirg'iziston esa qayta ishlab sanoati va agrosanoat sohasida o'z pozitsiyalarini mustahkamlamoqda.

Mazkur tendensiyalar fonda O'zbekiston mintaqadagi eng jadal rivojlanayotgan davlatlardan biri bo'lib turibdi. So'nggi besh yil ichida mamlakat Garvard universitetining Iqtisodiy murakkablik atlas reytingida 28 pog'ona yuqorilab, 145 ta davlat orasida 70-o'rinni egalladi. Eksporning o'racha yillik o'sishi 13,4 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, energetika bilan bog'liq bo'lmagan eksport hajmi yiliga o'racha 17 foiz oshib, mintaqaviy va jahon o'racha ko'rsatkichlaridan yuqori sur'atni namoyon qildi.

Shu nuqtayi nazardan, TDT amaliy iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Savdo, transport, sanoat kooperatsiyasi, investitsiyalar va raqamlashtirish yangi mintaqaviy o'zaro bog'liqlikning asosiga aylanishi mumkin.

Savdo va sanoat kooperatsiyasi

Bugungi kunda O'zbekistonning TDT doirasidagi hamkorligi 35 dan ortiq yo'nalishni qamrab olgan. Hamkorlikning iqtisodiy tarkibi ham tobora kuchayib bormoqda. So'nggi to'qqiz yilda O'zbekistonning TDT mamlakatlari bilan tovar aylanmasi 2,7 barobar oshib, 2017-yildagi 4 milliard dollardan 2025-yilda qariyb 11 milliard dollarga yetdi. Eksport hajmi 1,2 milliard dollardan 3,8 milliard dollarga, import esa 1,8 milliard dollardan 7 milliard dollarga oshdi.

TDT doirasida Qozog'iston va Turkiya O'zbekistonning eng yirik savdo hamkorlari bo'lib qolmoqda. Tovar aylanmasining 46 foizi yoki qariyb 5 milliard dollari Qozog'iston hissasiga to'g'ri keladi. Turkiyaning ulushi esa 28 foizni yoki taxminan 3 milliard dollar.

Shuningdek, Turkmaniston va Qirg'iziston bilan savdo hajmi ham sezilarli bo'lib, har biri bilan tovar aylanmasi 1,2 milliard dollarni tashkil etadi.

Savdo tarkibi ham o'zgarmoqda. O'zbekistonning TDT mamlakatlariga eksportida sanoat mahsulotlari 28,2 foizni, mashina va transport uskunalar 19 foizni, oziq-ovqat mahsulotlari 11,1 foizni, kimyo mahsulotlari 10 foizni, xizmatlar esa 12,7 foizni tashkil etmoqda. Tayyor mahsulotlar, xizmatlar va ishlab chiqarish kooperatsiyasi ulushi ortib borayotgani iqtisodiyotning yanada murakkabroq modelga bosqichma-bosqich o'tilayotganini ko'rsatadi.

TDT mamlakatlaridan import, asosan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash ehtiyojlari bilan bog'liq. Import tarkibi asosini oziq-ovqat mahsulotlari, mineral yoqilg'i, sanoat mahsulotlari, mashina va uskunalar tashkil etmoqda. Bu esa ishlab chiqarish aloqalari kengayib borayotganidan dalolat.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi baholariga ko'ra, O'zbekiston TDT mamlakatlariga eksport hajmini qo'shimcha 2,7 milliard dollarga oshirish imkoniyatiga ega. Eng katta amalga oshirilgan eksport salohiyati Turkiya hissasiga to'g'ri kelib, qo'shimcha eksport hajmi 1,8 milliard dollarga baholanmoqda.

Eksporni kengaytirish salohiyati O'zbekistonning qator tovar yo'nalishlaridagi raqobat ustunliklariga asoslanadi. Avvalo, bu quruq meva, sabzavot va yong'oqlarni o'z ichiga olgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga taalluqli. TDT mamlakatlari agrar mahsulotlar bozori hajmi taxminan 72 milliard dollarga baholanmoqda va unda o'zbek ishlab chiqaruvchilari allaqachon mustahkam o'rinni egallagan.

Tahlillarga ko'ra, eksportning qo'shimcha o'sishi to'qimachilik va elektrotexnika, qurilish, oziq-ovqat mahsulotlari, o'g'itlar, mis, etilen polimerlari hamda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan boshqa tovarlar yetkazib berish hisobiga ta'minlanishi mumkin.



Sarmoyalar va logistik loyihalar

TDT doirasidagi savdo integratsiyasi investitsiya va ishlab chiqarish kooperatsiyasi chuqurlashuvi bilan birga kechmoqda. 2017-2025-yillarda TDT mamlakatlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga kiriting jami investitsiyalari hajmi 11,5 milliard dollardan oshdi. Shundan 3,8 milliard dollari faqat 2025-yilning o'zida jalb qilingan. Investitsiyalarning asosiy qismi qayta ishlab sanoati, energetika,

qishloq xo'jaligi, qurilish va logistika sohalariга yo'naltirildi.

2026-yil aprel holatiga ko'ra, O'zbekistonda TDT mamlakatlari kapitali ishtirokida



4,5 mingdan ortiq korxonaga faoliyat yuritmoqda. Qo'shma ishlab chiqarishlar, logistika loyihalari va kooperatsiya aloqalari tashkil etilmoqda. Ular ham mintaqaning ichki bozoriga, ham tashqi yo'nalishlarga mo'ljallangan.

Eng faol investor sifatida Turkiya yetakchilikni saqlab qolmoqda. 2025-yilda Turkiya investitsiyalari hajmi 2,4 milliard dollarni tashkil etdi. O'zbekistonda turk kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 2,14 mingtaga yetdi. Turkiya biznesi sanoat ishlab chiqarishi, qurilish sohasi, to'qimachilik tarmog'ini hamda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda.

TDT mamlakatlarida O'zbekistonning eng yirik savdo hamkori hisoblangan Qozog'iston ayni vaqtda investitsiyaviy

Qirg'iziston bilan har tomonlama strategik sheriklik formati esa qo'shma korxonalar sonining 346 tagacha oshishiga xizmat qildi.


Qirg'iziston yo'nalishida ham yuqori dinamika kuzatilmog'ida. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, Qirg'iziston bilan yuk tashish hajmi 22,4 foiz oshib, qariyb 5,4 million tonnaga yetdi. Bunda eksport yuklarini tashish hajmi barcha transport turlari bo'yicha ikki barobardan ko'proqqa oshdi.

Ozarbayjon va Turkiya bilan transport hamkorligi ham izchil kengayib bormog'ida. 2025-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi yuk tashish hajmi 28,3 foiz ko'paydi. Toshkent va Boku o'rtasida muntazam aviaqatnovlar haftasiga 14 ta reys chastotasida amalga oshirilmoqda.

Turkiya bilan transport aloqalari ham yuqori faolligi bilan ajralib turadi. Ikki mamlakat shaharlari o'rtasida haftasiga

97 ta muntazam aviareys amalga oshiriladi. Ular saklizta, jumladan, Istanbul va Anqara yo'nalishlarini qamrab oladi.

Turkmaniston mintaqaviy transport tizimining muhim yo'nalishlaridan biri. Chegaraoldi savdoni soddalashtirish bo'yicha amaliy qadam sifatida "Shovot — Toshhovuz" qo'shma savdo zonasi ishga tushirildi. 2025-yil yakunlariga ko'ra, ikki mamlakat o'rtasidagi yuk tashish hajmi 22,5 foiz oshib, qariyb 1,8 million tonnani tashkil etdi.



Turkmaniston mintaqaviy transport tizimining muhim yo'nalishlaridan biri. Chegaraoldi savdoni soddalashtirish bo'yicha amaliy qadam sifatida "Shovot — Toshhovuz" qo'shma savdo zonasi ishga tushirildi. 2025-yil yakunlariga ko'ra, ikki mamlakat o'rtasidagi yuk tashish hajmi 22,5 foiz oshib, qariyb 1,8 million tonnani tashkil etdi.

Vengriya kapitali ishtirokidagi korxonalar soni nisbatan kam bo'lishiga qaramay, amalga oshirilayotgan loyihalar yirik hajmi va texnologik xususiyati bilan ajralib turadi. Ular qatorida Sirdaryo viloyatida qiymati 165 million dollar bo'lgan parrandachilik klasterlarini tashkil etish hamda Yangi Toshkentda oqova suvlarni tozalash inshootlarini qurish bo'yicha 59 million dollarlik loyiha mavjud.

Qo'shma loyihalarni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha mexanizmi sifatida Turkiya investitsiya jamg'armasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2025-yilda jamg'armaning ustav kapitali 500 million dollardan 600 million dollarga oshirildi. Bunda O'zbekistonning ulushi 100 million dollarni tashkil etdi. Kelgusida jamg'arma TDT makonidagi infratuzilma, sanoat, logistika va raqamli loyihalarni moliyalashtirish vositalaridan biriga aylanishi mumkin.

Transportda o'zaro bog'liqlik

To'g'ridan to'g'ri dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan O'zbekiston uchun transport o'zaro bog'liqligini rivojlantirish tashqi savdoni kengaytirish va xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyalashuvning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sharoitda transport sohasi TDT doirasidagi iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Tashkilot mamlakatlari o'rtasidagi savdo hajmi o'sishi transport oqimlari sezilarli kengayishi bilan kuzatilmog'ida. Eng yirik yuk tashuvchilari Qozog'iston bilan saqlanib qolmoqda. Chunki O'zbekistonning Rossiya, Kavkaz va Yevropa yo'nalishidagi asosiy quruqlik yo'nalishlari aynan Qozog'iston orqali o'tadi. 2025-yil yakunlariga ko'ra, ikki mamlakat o'rtasidagi yuk tashish hajmi 22,3 million tonnadan oshdi. Shundan 19,6 million tonnasi temir yo'l transporti hissasiga to'g'ri keldi.

TDT doirasida tovar aylanmasi o'sib borishi bilan mintaqaviy davlatlari o'rtasida barqaror multimodal o'zaro bog'liqlikni ta'minlash tobora dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu temir yo'l, avtomobil, aviatsiya va dengiz infratuzilmasini birlashtiruvchi integratsiyalashgan transport koridorlari tizimini shakllantirishni talab qiladi.

Aynan shu nuqtayi nazardan Transkaspniy xalqaro transport yo'lagi, ya'ni O'rta yo'lak alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston uchun mazkur yo'nalish nafaqat tranzit yo'nalishi, balki o'z mahsulotlarini Ozarbayjon, Turkiya, Yevropa va Yaqin Sharq bozorlariga yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida ham muhimdir.

Jahon logistikasidagi o'zgarishlar fonda Yevroosiyo yodagi muqobil transport yo'nalishlarini rivojlantirish dolzarbligi yanada ortmoqda. Geosiyosiy beqarorlik natijasida transport zanjirlarining qayta shakllanishi Markaziy Osiyo davlatlari uchun transport xarajatlarining 30 foizgacha oshishi va yetkazib berish muddatining bir necha haftaga uzayishiga olib kelmoqda.

Bu sharoitda "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li loyihasini amalga oshirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yo'nalish Sharq va G'arb o'rtasidagi yangi transport yo'lagini shakllantirmog'ida. Uning ishga tushirilishi yuk yetkazib berish muddatini 10 kungacha qisqartirishi hamda yiliga 15 million tonnagacha yuk tashish imkoniyatini yaratishi kutilmoqda.

Prezidentimiz sammitdagi nutqida "O'rta koridorning strategik rolini kelib chiqib, biz uni ayni paytda qurilayotgan "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li bilan bog'lashga katta e'tibor qaratamiz", dedi.

Kelgusida mazkur yo'nalishning O'rta yo'lak va Transfg'on yo'nalishi bilan bog'lanishi Yevroosiyoing yangi transport konfiguratsiyasini shakllantirishi mumkin. Bunday tizimda O'zbekiston nafaqat tranzit

hudud, balki o'z yuklari, logistika markazlari, transport kompaniyalari va sanoat maydonlari orqali qo'shilgan qiymatning mintaqaviy zanjirlarida to'laqonli ishtirokchiga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli tizim imkoniyatlari

Turkistonda o'tgan sammit mavzusi sun'iy intellekt va raqamli rivojlanishga bag'ishlangan iqtisodiy kun tartibi bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy savdoda raqobatbardoshlik endi faqat mahsulot sifati yoki bozorgacha bo'lgan masofa bilan belgilanmaydi. Rasmiylashtirish tezligi, logistika shaffofligi, raqamli tizimlarning o'zaro mosligi hamda biznesning axborotga kirish imkoniyatlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

TDT mamlakatlari uchun raqamli integratsiya hamkorlikning eng amaliy yo'nalishlaridan biriga aylanishi mumkin. Elektron savdo standartlarini uyg'unlashtirish, raqamli hujjatlarni o'zaro tan olish, bo'xona axborot tizimlarini integratsiya qilish va biznes uchun raqamli reyestrlarni yaratish tranzakson xarajatlarni kamaytirish hamda kompaniyalarning hamkor davlatlar bozorlariga chiqishini soddalashtirish imkonini beradi.

Bu, ayniqsa, kichik va o'rta biznes uchun muhim ahamiyatga ega. Ko'plab kompaniyalar tarif to'siqlaridan ko'ra ko'proq hamkorlar, talablar, sertifikatlash, logistika va to'lov instrumentlari haqidagi ma'lumotlar yetishmasligiga duch kelmoqda. TDT mamlakatlari biznesi uchun yagona raqamli platforma yaratilishi savdoni kengaytirishning amaliy vositasiga aylanishi mumkin. Ayniqsa, bu chegaraoldi va mintaqaviy ta'minot zanjirlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston so'nggi yillarda davlat xizmatlari va biznes muhitini raqamlashtirish bo'yicha katta tajriba to'pladi. Ushbu tajriba Tashkilot doirasida, ayniqsa, elektron xizmatlar, raqamli platformalar, bo'xona ma'murchiligi va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash sohalarida talab yuqori bo'lishi mumkin.

Xulosa

Turkiya davlatlar tashkiloti bosqichma-bosqich iqtisodiy hamkorlikning yanada amaliy modeliga o'tmoqda. O'zbekiston uchun mazkur jarayon eksport salohiyatini kengaytirish, sanoatni rivojlantirish va tashqi bozorlar bilan o'zaro bog'liqlikni mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichiga to'g'ri kelmoqda.

TDT doirasida iqtisodiy hamkorlik chuqurlashib borishi bilan O'zbekistonning mintaqaviy savdo, transport va ishlab chiqarish aloqalarini shakllantirishdagi roli ham ortib bormog'ida.

Sammitda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish hamda joriy etish masalasi bosh muhokama mavzusiga aylangan mintaqaviy davlatlarida iqtisodiy hamkorlikning zamonaviy formatlariga talab ortib borayotganini ko'rsatadi. Avvalo, gap savdo va logistikani raqamlashtirish, elektron xizmatlarni rivojlantirish, infratuzilma yetimlarini integratsiya qilish hamda mintaqaviy tranzakson xarajatlarni qisqartirish haqida boryapti.

Shu tariqa O'zbekistonning TDT norasmiy sammitidagi ishtiroki tobora amaliy iqtisodiy mazmun kasb etyapti. Savdoni kengaytirish, multimodal transport yo'laklarini rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, investitsiyaviy hamkorlik va raqamli o'zaro bog'liqlik kuchayishi Yevroosiyoing mintaqaviy ishlab chiqarish va logistika zanjirlariga yanada chuqur integratsiyalashuv uchun asos yaratmoqda.

HAMKORLIKDA ILK SUN'IY YO'LDOSH UCHIRILADI

Bugungi kunda Turkiya davlatlar tashkiloti doirasidagi ishlar har jahbada jadal rivojlanib bormog'ida. Xususan, kosmik texnologiyalar yo'nalishida tashkilot negizida Kosmik kengash faoliyat yuritmoqda. Ushbu kengashda barcha a'zo va kuzatuvchi davlatlarning soha vakillari bilan hamkorlikda qator loyihalar ustida ishlanyapti. Misol uchun, Qozog'iston bilan yerni masofadan zondlash ma'lumotlari asosida mintaqamizdagi ekologik va suv masalalarida monitoring qilinayotgan bo'lsa, ozarbayjonlik hamkasblar bilan mamlakatimiz hududida yerlarning sho'rlanishi darajasi o'rganilmoqda.



Muhiddin IBRAGIMOV,
"O'zbekkosmos" agentligi
direktori o'rinbosari

Turkiya oliy ta'lim muassasalarida o'zbekistonlik yoshlarni aerokosmik injiniring yo'nalishi bo'yicha qisqa muddatli stajirovkaga

yuborish rejalashtirilgan. Eng asosiy loyiha esa TDT doirasida birinchi sun'iy yo'ldoshni uchirish masalasidir. Bunday loyiha bo'yicha barcha a'zo davlatlar birgalikda ishlanyapti.

O'zbekiston ushbu tashabbusda o'z zimida ishlab chiqilgan maxsus sun'iy yo'ldosh dvigateli bilan qatnashyapti. Mazkur dvigatel O'zbekistonda mahalliy mutaxassis va muhandislar tomonidan yasalmog'ida. U sun'iy yo'ldoshni orbitaga olib chiqish va orbitadagi manovrini ta'minlab beradi. Bunday dvigatelni, umuman olganda, kosmik elementlarni ishlab chiqarish O'zbekiston uchun juda katta yangilikdir. Bu qiyin texnologiya bo'lib, tashkilotga a'zo mamlakatlar muhandislar bilan maslahatlashildi. Uni loyihalash, prototipini yig'ish va o'sha prototipni sinovdan o'tkazish ishlarni mukammal amalga oshirildi.

Hozirgi paytda sun'iy yo'ldoshga integratsiya qilinadigan uchuv modeli yig'ilyapti. Ish joriy yil oxirigacha yakuniga yetkaziladi.

Turkiya davlatlar tashkilotining Qozog'istonda bo'lib o'tgan norasmiy sammitida Prezidentimiz tomonidan bir



qancha tashabbuslar ilgari surildi. Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlaridan va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda ekologik muammolarga, suv tanqisligiga, cho'llanish va boshqa dolzarb masalalarga yechim topish

shular sirasidan. Ushbu tashabbus nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo va turkiya davlatlari uchun juda ham muhim. Chunki mintaqaviy bir, muammolar bir. Bugungi kunda iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar, suv

tanqisligi bir davlatning emas, barchaning muammosiga aylangan. Shuning uchun ushbu tashabbus doirasida "O'zbekkosmos" agentligi qo'shni davlatlar bilan bunday loyihalarni bajarishga tayyor.

Magistrant yosh muhandislarimiz Mirzo Ulug'bek nomidagi ilmiy sun'iy yo'ldoshni yig'ishyapti. Uning asosiy vazifasi yerni masofadan zondlash bo'lib, tegishli kameralar bilan jihozlanadi. Uni kelgusi yil oxiri va 2028-yil boshida uchirish rejalashtirilgan. Aynan shu sun'iy yo'ldoshdan olinadigan ma'lumotlardan ham yuqorida ta'kidlangan tashabbuslarni amalga oshirishda, ya'ni ekologik vazifalarni bajarishda foydalaniladi.

Tashabbuslar dolzarb bo'lib, mintaqaviy muammolarni hal qilishga, umumiy manfaatlariga xizmat qiladi. Shu ma'noda, kosmik hamda sun'iy yo'ldosh ma'lumotlarini qayta ishlab, ular orqali tahliyl yulxosalar qilib, turli yo'nalishlarda foydalanish nihoyatda muhim. Bu butun dunyo tajribasi. Hozir dunyoda ushbu yo'nalishga investitsiyalar ko'p kiritilayotganining boisi ham shunda.

Tashabbus



Tahlil

AYOLLARGA INVESTITSIYA – INTELLEKTUAL VA INNOVATSION STRATEGIYA

Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi

Bugungi global raqobat sharoitida davlatning haqiqiy kuchi tabiiy resurslar yoki moliyaviy imkoniyatlar emas, avvalo, inson kapitali bilan belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ayollarga investitsiya kiritish ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalasiga bo'lib qolmay, intellektual, innovatsion va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydigan strategik yo'nalish hamdir.

Yangi O'zbekiston siyosatida xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rini mustahkamlash taraqqiyotning muhim ustuvor vazifasi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ta'lim, ilm-fan, innovatsiya va tadbirkorlik sohalarida ayollar ishtirokini kengaytirish mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.



Bugun dunyo iqtisodiyoti bilim va texnologiyalarga asoslangan. Shu bois, STEM, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, biotexnologiya va "yashil iqtisodiyot" kabi sohalarida xotin-qizlar ishtirokini kuchaytirish kelajak taraqqiyotining hal qiluvchi omillaridan biriga aylangan. Ayollarning innovatsion tadbirkorlikka jalb qilinishi yangi ish o'rnlari yaratish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda milliy iqtisodiyotning texnologik salohiyatini yuksaltirishga yo'l ochadi. O'zbekistonda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha mustahkam huquqiy

va institutsional baza shakllantirilmogda. Keyingi sakkiz yilda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan 110 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Jumladan, 2025-yilning o'zida qabul qilingan bitta qonun, Prezidentimizning ikkita farmon va qarori, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlari sohada ishlohtlar izchil va tizimli tus olayotganini ko'rsatadi.

Statistik ma'lumotlar ham mazkur siyosatning amaliy natijalarini tasdiqlamoqda. Bugun O'zbekiston aholisining qariyb yarmini ayollar tashkil etadi. Ayollarning umr davomiyli oshib borayotgani, ta'lim va iqtisodiy faollik darajasi yuksalayotgani mamlakatda inson kapitali sifatiga investitsiya kuchayib borayotganini anglatadi.

Eng muhimi, strategiya ayollarni faqat ijtimoiy himoya obyektiga aylantirish emas, balki mamlakatning intellektual va innovatsion taraqqiyotini harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida ko'rayotgani bilan ahamiyatli. Bu yondashuv milliy taraqqiyotga, O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Buxoroda o'tgan Osiyo xotin-qizlari ikkinchi forumi doirasida tashkil etilgan parallel sessiyalarda bu jihatlar alohida muhokama etildi. Jumladan, davlat va jamiyat boshqaruv hamda siyosiy qaror qabul qilish jarayonlarida xotin-qizlar ishtirokini kengaytirishning dolzarb masalalari, xotin-qizlarning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash — barqaror bandlik, tadbirkorlik va muvozanatlashgan mintaqaviy o'sish omili, ilm-fan, ta'lim, ekologiya, innovatsiya va sun'iy intellekt sohalarida xotin-qizlar, yangi avlod imkoniyatlarini va xotin-qizlarning ijtimoiy va huquqiy kafolatlarini mustahkamlash hamda raqamli muhitda xavfsizligini ta'minlash, barqaror va inkluziv jamiyatni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari muhokamaning asosiy mavzulari bo'ldi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka jalb etish, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash borasida amaliy mexanizmlar joriy etilmogda. Xususan, 2023-yilda qariyb 209,5 ming xotin-qiz kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 366,5 mingdan oshdi.

Bugun O'zbekiston xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash, ayollarni ilm-fan, innovatsiya va tadbirkorlikka keng jalb etish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasida ilg'or tashabbuslarni ilgari surmogda.

Forum yakunlari bo'yicha deklaratsiya qabul qilingani, unda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, gender tenglikni ta'minlash, ayollar liderligi, ta'lim, innovatsiya va barqaror rivojlanish sohalaridagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab olingani Buxoro anjumanining samarasini, o'z navbatida, qit'ami xotin-qizlari uchun ahamiyatini namoyon etadi, albatta.

“Strategiya ayollarni faqat ijtimoiy himoya obyektiga aylantirish emas, balki mamlakatning intellektual va innovatsion taraqqiyotini harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida ko'rayotgani bilan ahamiyatli. Bu yondashuv milliy taraqqiyotga, O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.”



Bugun O'zbekiston xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash, ayollarni ilm-fan, innovatsiya va tadbirkorlikka keng jalb etish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasida ilg'or tashabbuslarni ilgari surmogda.



Xalqaro konferensiya

BMT Bosh Assambleyasining 1993-yildagi rezolyutsiyasiga muvofiq, butun dunyoda har yili 15-may – Xalqaro oila kuni sifatida keng nishonlanadi. Ushbu sana munosabati bilan mamlakatimizda ham “Oilamiz – kelajagimiz” oyligi o'tkazilmogda.

FAROVON OILA MODELII



Oylik doirasida poytaxtimizda “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan “Yangi O'zbekistonda farovon oila modeli: milliy tajriba, ilmiy tahlil va innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

Anjundan ko'zlangan asosiy maqsad yangi O'zbekistonda oila institutining barqaror rivojlanishini ta'minlash, zamonaviy huquqiy-institutsional mexanizmlar, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlarini asosida farovon oila modelining ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirishdir.

Xalqaro konferensiya global transformatsiya jarayonlarida milliy oilaviy qadriyatlarini saqlash va mustahkamlash, demografik barqarorlikni ta'minlash, reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish hamda gender tenglik va oila-ish muvozanatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni ilmiy muloqot maydonida birlashtirdi.

Mazkur anjuman ilm-fan, davlat boshqaruvi va xalqaro tajribalar integratsiyasi orqali inson kapitali rivojida

oilaning strategik ahamiyatini ochib berish, shuningdek, zamonaviy jamiyatda farovon oila modelini shakllantirishga xizmat qiluvchi ilmiy yechim va amaliy takliflarni ishlab chiqishga yo'naltirilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Yig'ilishda 10 dan ortiq xorijiy ekspert, oila sohacida faoliyat yuritayotgan 80 dan ziyod olim, tegishli vazirlik va idoralar vakili ishtirok etdi. Shuningdek, milliy va xalqaro tashkilotlar ekspert-mutaxassislari ma'ruza va taqdimotlari bilan qatnashdi.

Kuntartibidano'rinolgan “Oila institutining barqaror rivojlanishi va farovon oila modelini shakllantirishning huquqiy-institutsional asoslari”, “Globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash hamda farovon oilani ta'minlashda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar”, “Demografik barqarorlikni ta'minlash va reproduktiv salomatlikni mustahkamlash masalalari” hamda “Oilada gender tenglikni ta'minlash va oila-ish muvozanatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari” mavzularidagi ma'ruzalar anjuman mohiyatini ochib berishga xizmat qildi.

— “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan joriy yilning mart-aprel oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrida 12,5 mingdan ortiq respondent o'rtasida oilalarning baxtlik darajasini o'rganish maqsadida sotsiologik so'rovlar o'tkazildi, — deydi mazkur institut direktori Nodira Egamberdiyeva. — So'rovlarda oilalarning iqtisodiy farovonlik darajasi, demografik barqarorlik holati, sog'lom hayot kechirish davomiyli, ta'lim olish imkoniyatlari va ish bilan ta'minlanganlik, oilaviy hayotdan qoniqish va oilaviy baxtni his qilish, oilaviy qadriyatlarining o'rni va ahamiyati, oilalarning davlat organlari faoliyati hamda davlat xizmatlaridan qoniqish darajasi o'rganildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2026-yilda O'zbekiston oilalarining umumiy baxtlik indeksi 0,618 ballni tashkil etdi. Baholash mezonlariga muvofiq, mazkur ko'rsatkich oilalarning baxtlik darajasi yuqori ekanini namoyon etmogda.

Konferensiya doirasida xorijlik, mahalliy ekspert, olim va soha mutaxassislari maqolalari jamlandi hamda to'plam shakllantirildi, farovon oila modelini rivojlantirishga oid ilmiy rezolyutsiya, strategik takliflar va kelgusi tadqiqotlar uchun ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

MAMLAKAT QUDRATI FUQAROLARNING ISHONCHI VA JAMIYATDAGI ADOLAT MEZONI BILAN O'LCHANADI



Islohtlar samarasi



Bekzod TOG'AYEV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lim boshlig'i

Boshlanishi 1-betda

Xususan, “O'zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida davlat siyosati muvaffaqiyati mavhum makroiqtisodiy foizlar emas, balki insonning kundalik hayot sifati bilan o'lchanmogda. Makroiqtisodiy o'sishning ijtimoiylashuvi quyidagi omillarda yaqqol namoyon bo'lmoqda: — desentralizatsiya va moliyaviy mustaqillik: “Mahalla budjeti” tizimi joriy etilishi fuqarolarga o'z hududidagi muammolarni (yo'l, suv, infratuzilma) mustaqil

hal qilish vakolatini berdi. Bu jamiyatda boqimandalik kayfiyatini yo'qotib, daxldorlik hissiini uyg'otmogda: — inson kapitaliga investitsiya: maktabgacha ta'lim qamrovining 27 foizdan 74 foizga keskin oshishi, Prezident maktablari tarmog'i va “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” ishlatish davlatning asosiy kapitali intellektual va sog'lom avlod ekanini tasdiqlaydi.

Ikkinchi yo'nalish — institutsional meritokratiyada ham katta yutuqlarga erishildi, ta'bir joiz bo'lsa, kadrlar siyosatida inqilob yuz berdi.

Davlat boshqaruvi sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqqan eng muhim huquqiy qadam Prezidentimizning 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatlari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni bo'ldi. Mazkur hujjat kadrlar siyosatida eskicha yondashuvlarni butunlay yo'qqa chiqarib, meritokratiya (munosiblar hukmronligi) tizimini o'rnatdi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ldi: — ochiq raqobat va shaffoflik: 2025-yil 1-avgustdan vakant lavozimlarga onlayn proktoring va inson omilisiz baholash tizimi orqali qabul qilinishi tanish-bilishchilikka chek qo'ydi; — kompetensiyaga asoslangan baholash: davlat xizmatlari salohiyati endi quruq ish staji bilan emas, balki IQ (intellektual koefitsiyent), psixologik barqarorlik va boshqaruv qobiliyati bilan o'lchanmogda.



“Kasbiy rivojlantirish xaritasi” orqali har bir xodimning o'sishi real vaqtda kuzatilmogda; — liderlar seleksiyasi: “Milliy kadrlar zaxirasi” va “TOP-100” dasturlari doirasida yangi avlod boshqaruvchilari seleksiya qilinmogda. Endilikda kadrlar bo'limi shunchaki qog'oz to'ldiruvchi emas, balki rahbarning strategik maslahatchisiga aylandi.

Uchinchi yo'nalish — raqamli shaffoflik va jamiyatning ijtimoiy sargalkligi bo'yicha ham ko'p va xo'p yozish mumkin.

Asosiy, raqamlashtirish bugungi kunda nafaqat texnik jarayon, balki “adolat quruli” va korrupsiyaga qarshi eng kuchli preventiv mexanizmlardan biriga aylandi.

Uning namoyon bo'lishi:

— xizmatlarning raqamli transformatsiyasi: ilgari oylab davom etadigan byurokratik jarayonlarning “My.gov.uz” portali orqali 200 dan ortiq masofaviy xizmatga o'tkazilishi inson omilini minimallashtirdi. Bu borada o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarda so'rov ishtirokchilarining 76,3 foizi bu yengillikni alohida e'tirof etgani tizimning to'g'ri ishlayotganini ko'rsatadi;

— ijtimoiy nazorat: respondentlarning 76,8 foizi davlat organlari faoliyatini ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatib, munosabat bildirayotgani fuqarolik jamiyatining uyg'ongani va ijtimoiy nazorat institutining real ishlayotganidan dalolatdir.

Davlat xizmatlari ma'naviyatini transformatsiyasi mavzusi ham muhim jihatlardir. Zero, eng mukammal qonunlar va eng ilg'or texnologiyalar ma'naviyatsiz va vijdonsiz rahbar qo'lida o'z kuchini yo'qotadi. Shu sababli bugungi kunda “Ma'naviy indeks” va kasbiy mahorat uyg'unligi davlat xizmatining quyidagi oltin qoidalarga aylandi:

— empatiya va mahallabay tizim: aholining 80 foizi muammo tug'ilganda birinchi bo'lib mahallaga suyanishi hakim yordamchilari va mahalla raislarining chinakam “tayanch tog'i”ga aylanganini ko'rsatadi. Ilgari fuqaro davlat idorasiga borgan bo'lsa, bugun davlat fuqaroning xonadoniga kirib bormogda;

— ichki intizom va qadriyatlar: tahlillarga ko'ra, soha xodimlarining 58,8 foizi halollikni bosh mezon deb bilishi hamda tizimda “ustoz-shogird” an'anasi orqali 89,9 foizli ijobiy ma'naviy muhit yaratilgani davlat apparatining ichki immuniteti shakllanganini bildiradi. Bu jamiyatda joriy etilayotgan “halollik vaktsinasi”ning amaldagi samarasidir.

Yangi O'zbekistonda davlat xizmatlari shaffoflikni ta'kidlab, ma'naviyatni yanada mustahkamlashga e'tibor qaratmoqda. Ulardagi “Faoliyatim menga nima berdi?” degan tor iste'molchilik kayfiyati o'rni “Men xalqim uchun nima qila olaman?” degan keng qamrovli, buniyodkorlik mafkurasi egallamogda.

Qabul qilinayotgan har bir qaror ortida inson taqdiri yotganini teran anglash, yuksak muomala madaniyatiga ega bo'lish va el dardi bilan yashash bugungi kun rahbarining nafaqat xizmat vazifasi, balki oliy ma'naviy burchidir. Zero, milliy qadriyatlarimiz va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini o'zida mujassam etgan ushbu tizimning pirovard maqsadi bitta: xalqni davlatdan va bugungi yashayotgan hayotidan rozi qilishdir.



Ajib o'lka ekan bu Ozarbayjon. Har bir qadamida ulug' shoir-u adiblar xoki yotibdi.
Har bir kent-u qishlog'ida buyuk mutafakkirlar ruhi kezib yuribdi.

YANGI O'ZBEKISTON

www.yuz.uz official yuz.uz_news yuz.uz_news



NIZOMIY GANJAVIY YURTIDA UCH KUN

Nurboy JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor

O'zbek — ozarbayjon adabiy aloqalari qadimiy va mustarak ildizlarga ega bo'lgani uchun ham bugunga kelib chinakam yuksalish bosqichiga kirdi. O'tgan zamonlarda bu ikki qondosh va jondosh el adabiy do'stligi alohida shoir-u adiblar faoliyati misolida rivojlanib kelgan bo'lsa, ayni keza bu boradagi o'zaro munosabatlar har qachongidan ham keng ko'lamda ravnaq topayotir. O'zaro ijtimoiy-siyosiy va madaniy-adabiy aloqalarimiz yangi darajada takomilga yetmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev taklifiga ko'ra, amaliy tashrif bilan qardosh mamlakatda bo'lib, Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasi tadbirlarida ishtirok etdi. Tili va dini, an'ana va qadriyatlarini bir bo'lgan ikki xalq, ikki davlat birdamligining istiqbol borasida yangi zalvorli qadamlar qo'yildi.



O'zaro yaqin munosabatlarning bunday darajada yuksalishi boshqa barcha sohalar singari adabiy aloqalarning ham yangi bosqichdagi takomiliga sabab bo'lmoqda. Jumladan, 23-25-aprel kunlari Boku shahrida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning "Vaqt haykali" kitobining ozarbayjon tilidagi nashri taqdimoti yuqori saviyada tashkil etilgani do'stona adabiy hamkorlik tobora kengayayotganidan dalolat beradi.

Anar muallim qalbidagi ehtirom

Safarimizning dastlabki kuni Ozarbayjon Yozarlar birligi raisi Anar muallim boshchiligidagi davra suhbatida tashkil etildi. Ijodiy muloqot qizg'in muhokamalarga boy, ikki qardosh xalq adabiyotiga xos an'analarning bugungi yangilanish jarayoni, bunda davlat rahbarlarining e'tibori alohida o'rin tutayotgani haqida fikrlashuv ruhida o'tdi.

— Avvalo, Ozarbayjonga xush kelibsiz! Bugun ikki qardosh davlat o'rtasidagi masofa har qachongidan ham yaqinlashdi. O'n kun oldin biz O'zbekistonda bo'lgan edik. Bugun siz Ozarbayjondasiz — na xush damlar! — dedi davra suhbatini ochar ekan Anar muallim. — O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida bo'ldik. Bu markaz O'zbekistonning nafaqat Markaziy Osiyo yoki turkiy dunyoda, balki islom olami va butun jahonda adabiyot, madaniyat va san'at, Qur'on va hadis, kalom va tasavvuf ilmlari borasida naqadar ulkan salohiyatga ega davlat ekanini namoyish etuvchi mo'tabar maskan bo'libdi. Islom sivilizatsiyasi rivojiga O'zbekiston qo'shgan beqiyos hissa aniq-ravshan, hujjatli va eng so'nggi texnologiyalar asosida yoritilgani chindan ham tahsinga loyiq!

Shundan keyin Sirojiddin Sayyid ikki xalq adabiy hamkorligining yuksalishida davlat rahbarlarining adabiyotga ko'rsatayotgan yuksak e'tibori muhim asos bo'layotgani haqida so'zlashdi. Shoir o'qigan "O'zbek — Ozarbayjon faxriyasi" she'ri davraga o'zgacha ruh, shavqu zavq olib kirdi:

Aytsam agar — olamjahon,
Olgaydir bir nolam jahon.
Qo'limdagi qalam — jahon,
Mening ikki bolam — jahon.
Biri — jon, biri — jonajon:
O'zbekiston — Ozarbayjon,
Ozarbayjon — O'zbekiston...

Davra suhbatida Nizomiy va Navoiy, Fuzuliy va Ogahiy, Samad Vurg'un va Erkin Vohidov, Baxtiyor Vahobzoda va Abdulla Oripov she'rlaridan o'qildi. Ahamiyatli jihati, ozarbayjon ziyolilari o'zbek she'riyatini, o'zbek oydinlari ozarbayjon adabiyotini naqadar chuqur bilishi ayon bo'ldi.

Navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, she'r zavqi, g'azal shavqi allamahalgacha davom etdi.

Bu mushoiralar ikki qondosh xalq adabiyoti qanchalar yaqin ekanini yana bir karra tasdiqladi. Ko'ngillar nasr bo'stoni chamanlaridan bo'y oldi, nazm gulzori chechaklaridan muayyad bo'ldi. Oradan masofa ko'tarildi, ikki adabiyot ruhan bir ekani yanada oydinlashdi.

Ajib o'lka bu Ozarbayjon

Safar rejamizning eng muhim qismlaridan biri — tarixiy Ganja shahriga borish va buyuk Nizomiy Ganjaviy maqbarasini ziyorat etish edi. Mezbonlarga ehtirom hamda ularda Ozarbayjon o'lkasiga haqida kengroq taassurot uyg'otish uchun bo'lsa kerak, yo'limiz Buyuk Kavkaz tog'lari dovoni orqali tashkil etildi. Mikroavtobus yo'lining tanobini tortib borar



ekan, Buyuk Kavkaz tog'lari etagida joylashgan shirvonshohlar saltanatining boshkenti Shamaxi shahridan o'tdik. Eramizdan avvalgi V-IV asrlardayoq aholi istiqomat qilgan bu tarixiy shahar yuksak madaniyat va adabiyot markazi sifatida ham shuhrat qozongan. Iqlimi nihoyatda yoqimli, havosi toza Shamaxida hunarmandchilik, ayniqsa, gilamchilik va ipakchilik qadimdan rivojlangan. Tarixiy obidalar, moziydan yodgor masjid-u maqbaralar saqlanib qolgan shaharning qadimiy tarixi va shukuhidan dalolat beradi. Shamaxi boshqa barcha fazilatlarini sanamaganda ham, Imodiddin Nasimiy, Xoqoniy Shirvoniy, Mirza Aliakbar Sobir, Sayyid Azim Shirvoniy va Muhammad Hodiying singari ulug' shoir-u mutafakkirlar vatani ekanini bilan Ozarbayjonning eng mo'tabar maskanlaridan sanaladi. Shaharning yo'l yoqasidagi muazzam devorlarida mazkur shoirning o'yimakor suratlarini naqshlab, ismlari darj etilgan.

Ajib o'lka ekan bu Ozarbayjon. Har bir qadamida ulug' shoir-u adiblar xoki yotibdi. Har bir kent-u qishlog'ida buyuk mutafakkirlar ruhi kezib yuribdi. Birgina Shamaxidan

yetishib chiqqan buyuk iste'dod egalarining o'ziyoq jahon adabiyoti takomilida alohida o'rin tutadi. Ustozi Abul A'lo Ganjaviy nazariga tushib, shirvonshohlar saroyida adabiy muhit shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan, Nizomiy Ganjaviy bilan do'stona munosabatda bo'lib, "Tuhaft ul-Iroqayn" ("Ikki Iroq tuhfasi") asari bilan ozarbayjon adabiyotida dostonchilikka asos solgan Xoqoniy Shirvoniy ham ana shu ma'vodan yetishib chiqqan. Ustoz Najmiddin Komilov uning mashhur "Mir'ot us-safo" sini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Mirzo Abdulqodir Bedil singari so'z san'ati darg'alari tatabbu yozganining o'ziyoq bu qasidaning Sharq estetik tafakkuri rivojida tutgan o'rni qanchalik baland bo'lganiga dalolat qiladi.

Shamxilik XX asr shoiri Muhammad Hodiyy jadid bobolarimiz bilan yaqin munosabatda bo'lgan. She'rlari ham Vatani va millat dardi ila yo'g'rilgan, jadidona ruhda. "Alvohi intiboh yoxud insonlarning tarixiy fojialari" nomli mumtoz manzumasida Birinchi jahon urushi jangohlaridagi qing'irbarot taassurotlarini ta'sirli ifodalagan:

Nasi, ko'rdingmu tarixi bashar
qonlar-la boshlanmish,
E voh, qonlar-la, afg'onlar-la,
xusronlar-la boshlanmish,
U qon tarixida noqobil
insonlar-la boshlanmish...
Boqishlar ko'lali, yuzlar
butun noshod shaklinda,
Bu motangohi kim ko'rmish
sururobod shaklinda.

Shoir nazidida, inson naqadar mukarram va sharafli bo'lsa, shu qadar tuban va badbaxt hamdir. Egulikka nechog'liq qodir bo'lsa, yovuzlik bobida ham unga teng keladiganini topish mahol. Bashar tarixi qon to'kish bilan boshlangani haqida yozar ekan, shoir odamzod kechmishi ibtidosidagi Qobil va Hobil voqeasiga ishora qiladi. Shundan buyon qonlar, afg'onlar, xusronlar (adashuvlar — N.J.) mutasil davom etayotganiga taassuf bildiradi. Shoir she'rida ifodalangan iztirob-u anduhga yo'g'rilgan fikrlar bugun dunyoda kechayotgan xunrezliklar,

Ne ajabki, biz ana shu tarixiy shahardamiz. Bizni Ganja shahri hokimi o'rinbosari Odil Tagiyev va Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Ganja bo'lmi mas'ul kotibi Alimuxtor Muxtorov kutib oldi. Birgalikda Nizomiy Ganjaviy ziyoratiga bordik. Ko'ngillarimiz numday erib, Qur'on tilovat etdik. Buyuk Nizomiy va ulug' Navoiyning pok ruhlari, qardosh xalqlarimiz do'stligi va adabiy hamkorligi yuksalishi uchun barcha imkoniyatlarini yaratib berayotgan ikki davlat rahbari haqiga xayrli duolar qildik. Intizor bo'lib kelganimiz ziyoratdan dilgarga nur indi, ruhimiz oynasi g'uborlardan aridi.

Mezbonlardan biri qiziq savol berdi: "Ganjaga faqat Nizomiy ziyorati uchun kelingizmi?". Biz: "Ha, Nizomiy Ganjaviy ziyorati ko'zlarimizga nur, ko'ngillarimizga surur berdi", deya javob berdik. Toshkent va Ganja shaharlari orasidagi masofa havo yo'li orqali taxminan 2000-2100 kilometrni tashkil etsa, avtomobil yo'li orqali bundan ham ancha uzoq — qariyb 3000 kilometr ekan. Ehtimol, qardoshimiz savolida ham jon bordir. Lekin Nizomiy va Navoiy munosabatlardan yaxshi xabardor o'zbek ziyolisi bu yo'lni buyuk Nizomiy ziyorati uchun bosib o'tishni sharaf deb bilishi ayon.

"Saddi Iskandariy" dostonida Hazrat Alisher Navoiy buyuk salafari — Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa ulug'lar bilan holi muloqot qilmoqqa muayassar bo'ladi. Shunda Nizomiy Ganjaviy Hazrat Navoiyga qarata mana bunday so'zlarni aytadi:

Sipehr aylab el ichra nodir seni,
Jahon nazmi tavrida qodir seni...
Ki, keldi zamonda sendek kishi —
Ki, ermas ishing odamizod ishi.
Hazrat Nizomiy buyuk xalafi Alisher Navoiyning bunday ulug' darajaga erishuvi sababini bu ishga poklik ila qo'l urgani, poklar ruhi uning yo'lini ochgani, har sahar ulug' ustozlari ruhini duo bilan shod etgani, ular nomini ixlos ila yod etgani bilan izohlaydi. "Yo'q ersa erur asru savdoi xom, lki yilda bir "Xamsa" qilmoq tamom", deya "Xamsa" ni ikki yilda yakunlab, sharaf topgani ana shu fazilatlarini tufayli ekaniga urg'u beradi. Biz ham bu ulug' siymolar ziyoratidan cheksiz bahra oldik.

Hazrat Nizomiy ziyoratidan so'ng fuzuliyshunos olim va adib Mir Jalol Pashayev uy-muzeyida bo'ldik. Adibning ibratli hayot yo'li, qimmatli asarlari bilan tanishdik. Ozarbayjon Yozarlar birligining Ganja viloyati filialida shoir-u adiblar bilan qizg'in ijodiy muloqot o'tkazildi. Ozarbayjon xalq yozuvchisi Anar Razzevning onasi Nigor Rafibeyli haykali poyiga gullar qo'yilib, shoira xotirasiga ehtirom ko'rsatildi. Ganja safari buyuk Nizomiy ziyorati barobarida benazir mutafakkirning bugungi izdoshlari ijodi bilan ham yaqindan tanishilgani, ikki ulug' shoir avlodlari o'rtasidagi do'stlik ko'priklari yanada mustahkamlangani bilan

Ganjaning bebaho ganji

O'zbek va ozarbayjon adabiyoti takomilining cho'g'qisida ikki buyuk mutafakkir — Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodiy merosi turadi. Zohiran ulfa yashab ijod qilgan davrni uch asrlik masofa ajratib tursa-da, ikki buyuk shoir ijodi mohiyatan bir-biriga uyg'un. Go'yo bir davrda yashagandek, biri ikkinchisini taqozo etadi va boyitadi. Hazrat Alisher Navoiy buyuk beshlikning har bir dostonida ulug' salafi Nizomiy Ganjaviy vasfiga alohida sahifalar

bag'ishlaydi. Ganja shahriga kirib kelar ekanmiz, Hazrat Navoiyning mana bu satrlari ko'ngillarga yog'du ulashadi:

Ganja Vatan, ko'ngli oning ganjex,
Xotiri ganjuru tili ganjrez.

Ushbu baytda Nizomiyning vatani Ganja, ko'ngli ganjex — ma'no javohirlarini ulashuvchi, xotiri xazinalarni saqlovchi bo'lsa, tili — duru-gavharlar to'kuvchi, ya'ni qimmatli baland, teran ma'noli so'zlarni aytuvchi ekani ta'kidlangan.

ham xotiramizga muhrlandi. Yorug' xayollar og'ushida Ganja — Boku yo'lini qanday bosib o'tganimizni ham sezmadik.

Ulug'lar ziyorati — ko'ngillar halovati

Safarimizning uchinchi kuni ham ziyorat bilan boshlandi. Boku shahridagi "Shahidlar



Ne ajabki, biz ana shu tarixiy shahardamiz. Bizni Ganja shahri hokimi o'rinbosari Odil Tagiyev va Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Ganja bo'lmi mas'ul kotibi Alimuxtor Muxtorov kutib oldi. Birgalikda Nizomiy Ganjaviy ziyoratiga bordik. Ko'ngillarimiz numday erib, Qur'on tilovat etdik. Buyuk Nizomiy va ulug' Navoiyning pok ruhlari, qardosh xalqlarimiz do'stligi va adabiy hamkorligi yuksalishi uchun barcha imkoniyatlarini yaratib berayotgan ikki davlat rahbari haqiga xayrli duolar qildik. Intizor bo'lib kelganimiz ziyoratdan dilgarga nur indi, ruhimiz oynasi g'uborlardan aridi.

Mezbonlardan biri qiziq savol berdi: "Ganjaga faqat Nizomiy ziyorati uchun kelingizmi?". Biz: "Ha, Nizomiy Ganjaviy ziyorati ko'zlarimizga nur, ko'ngillarimizga surur berdi", deya javob berdik. Toshkent va Ganja shaharlari orasidagi masofa havo yo'li orqali taxminan 2000-2100 kilometrni tashkil etsa, avtomobil yo'li orqali bundan ham ancha uzoq — qariyb 3000 kilometr ekan. Ehtimol, qardoshimiz savolida ham jon bordir. Lekin Nizomiy va Navoiy munosabatlardan yaxshi xabardor o'zbek ziyolisi bu yo'lni buyuk Nizomiy ziyorati uchun bosib o'tishni sharaf deb bilishi ayon.

"Saddi Iskandariy" dostonida Hazrat Alisher Navoiy buyuk salafari — Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa ulug'lar bilan holi muloqot qilmoqqa muayassar bo'ladi. Shunda Nizomiy Ganjaviy Hazrat Navoiyga qarata mana bunday so'zlarni aytadi:

Sipehr aylab el ichra nodir seni,
Jahon nazmi tavrida qodir seni...
Ki, keldi zamonda sendek kishi —
Ki, ermas ishing odamizod ishi.

Hazrat Nizomiy buyuk xalafi Alisher Navoiyning bunday ulug' darajaga erishuvi sababini bu ishga poklik ila qo'l urgani, poklar ruhi uning yo'lini ochgani, har sahar ulug' ustozlari ruhini duo bilan shod etgani, ular nomini ixlos ila yod etgani bilan izohlaydi. "Yo'q ersa erur asru savdoi xom, lki yilda bir "Xamsa" qilmoq tamom", deya "Xamsa" ni ikki yilda yakunlab, sharaf topgani ana shu fazilatlarini tufayli ekaniga urg'u beradi. Biz ham bu ulug' siymolar ziyoratidan cheksiz bahra oldik.

Hazrat Nizomiy ziyoratidan so'ng fuzuliyshunos olim va adib Mir Jalol Pashayev uy-muzeyida bo'ldik. Adibning ibratli hayot yo'li, qimmatli asarlari bilan tanishdik. Ozarbayjon Yozarlar birligining Ganja viloyati filialida shoir-u adiblar bilan qizg'in ijodiy muloqot o'tkazildi. Ozarbayjon xalq yozuvchisi Anar Razzevning onasi Nigor Rafibeyli haykali poyiga gullar qo'yilib, shoira xotirasiga ehtirom ko'rsatildi. Ganja safari buyuk Nizomiy ziyorati barobarida benazir mutafakkirning bugungi izdoshlari ijodi bilan ham yaqindan tanishilgani, ikki ulug' shoir avlodlari o'rtasidagi do'stlik ko'priklari yanada mustahkamlangani bilan

xiyoboni" dagi sho'ro davri fitnalarining qurboni bo'lgan shahidlar xotirlandi. Shundan so'ng Ozarbayjon Respublikasining birinchi prezidenti Haydar Aliyev qabri ziyorat etilib, ulug' davlat arbobi yodgorligi poyiga gulchambarlar qo'yildi. Shu maskanda dafn etilgan mashhur shoir Samad Vurg'un qabrinini ziyorat qildik ekanmiz, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid uning mana bu satrlarini berilib o'qidi:

Agar sendan tonar bo'lsam,
nasibim ohu zor o'lsin,
Bahorim qishga aylansin,
chechaksiz bir diyor o'lsin.
Chamanzorim, bog'im-bog'cham to'kilsin,
bori xor o'lsin,
Mazorim o't olib yonsin,
bu ishqim oshkor o'lsin.

Qo'y, ey bulbul! Tin, ey dovul,
ki xohish istirohatdir,
Bu yerlarda ilinjim yo'q,
yupanchim bir sayohatdir.
O'lim, ey voh, bu ne'matdir,
bu bir shonli saodatdir,
Agar bevaqt o'lar ersam,
raqibim baxtiyor o'lsin...

— Bu she'mi Razzoq Abdurashid tarjima qilgan, — dedi Sirojiddin Sayyid. — Betakror she'r va uning benazir tarjimasini!

Shoimning quvvai hofizasi barchamizni hayratlantirdi. So'z Fuzuliy haqida ketadimi yoki Mulla Panoh Voqif, Samad Vurg'un to'g'risidami yoki Baxtiyor Vahobzoda xususida — Sirojiddin aka ular she'rlaridan durdona misralarni yoddan aytadi.

Bokuda vaqtga qo'yilgan haykal

Ziyoratdan so'ng Ozarbayjon Yozarlar birligi majlislar zalida Sirojiddin Sayyidning ozarbayjon tilida nashr etilgan "Vaqt haykali" she'riy to'plami taqdimoti o'tkazildi. Tadbirni ochib berar ekan, Anar muallim mana bunday so'zlarni aytadi: "Bugun ushbu koshonamizga Navoiy va Bobur yurti — qardosh O'zbekistondan kelgan delegatsiya a'zolariga xush kelibsiz deymiz! Azaldan qondosh va bir-birimizni yaxshi bilgan elmiz. Ikki xalqning birdamligini, ikki Prezidentning do'stligini bilib, kuzatib turibmiz. Davlatlarimiz rahbarlari yuritayotgan siyosat tahsinga sazovor. Bu do'stlik adabiy hamkorligimizga ham keng yo'l ochayotir. Sirojiddin Sayyidning "Vaqt haykali" kitobi ozarbayjon tiliga tarjima etilgani hammamizni xursand qildi. Bu kitob o'zbekning ulug' shoiri asarlari tarjimalarining debochasidir. Hali ko'p yuksak she'rlari, dostonlari tarjima etilib, ozarbayjon xalqining adabiy-ma'naviy xazinasiga aylanjak".

Ilm yo'llarida, buyuk Navoiy bobomiz merosini o'rganish va xalqimizga yetkazish yo'lida baholi qudrat xizmat qilib yurgan bir mutaxassis sifatida Anar muallimning: "O'zbekistondan tanilqli olim Nurboy Jabborov domla kelgan, biz uni mashhur navoiyshunos sifatida bilamiz", degan fikrlari tafakkurimga nur, ko'nglimga surur bag'ishladi. Bu e'tirof, tabiiyki, bundan keyin qilinadigan katta ishlar uchun mas'uliyat hissini yuklaydi.

Taqdimotda O'zbekistonning Ozarbayjon Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi Bahrom Ashrafxonov O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning "Vaqt haykali" kitobi tarjimasini ikki xalq adabiy aloqalari rivojida alohida o'rin tutishini, tarjimonlar Akif Bag'irov va Yashar Qosimov xizmatlari tahsinga loyiq ekanini alohida ta'kidladi. Bunday kitoblar ikki xalq do'stligini yuqori darajada yuksaltirishi xususida so'zlashdi. Kamina ham ushbu she'riy to'plam tarjimasining ahamiyati xususida gapirdim.

"Vaqtga haykal qo'yimoq payti ham yetdi!" — ushbu satr Sirojiddin Sayyidning 1984-yili yozilgan "Saksoninchi yillar" dostonidan olingan. Vaqtga degan ulug' ne'matni qadrlash, uni yelga sovrishdan saqlanmoq, asl haqiqatlarga bag'ishlamoq — vaqtga haykal qo'yish deganda shoir ana shu teran mohiyatni nazarda tutadi.

Hayot!
Ko'zlaringni mendan yashirma!
Hayot!
Dardlarimga o'zing ber hayot!
Sen o'zing dunyoda eng buyuk baxtsan,
Sen o'zing dunyoda eng buyuk fayrod.

Shoir ana shu eng buyuk baxt va eng buyuk faryod bo'lgan hayot falsafasini o'ziga xos talqin etadi. Uningcha, hayot Hazrat Navoiy kuylagan azob, ustoz G'afur G'ulom e'zozlagan ezgu dard. Zero, haqiqiy she'r ana shu azob va ezgu dard hosilasi. Vaqtga ijodkor qo'yajak haykal "Foniy hasrat emas — Oliy Orzudan, O'kinchi g'am emas — Yuksak Ishonchdan" qurilmog'i zarur. "Tug'yondan, vijdondan, giyohdan, tongdan, Shabnamdan, qasamdan, sevgi, quvonchdan" bunyod etilmog'i kerak bu haykal.

Haqiqiy shoir faqat o'zini o'ylay olmaydi. Uning yuragini mudom millat dardi, bashariyat dardi o'rtaydi. U Hazrat Navoiy bo'lib Astrobdaga surgun etiladi, Sobir Termiziy bo'lib suvga g'arq qilinadi. Zamondan quyun yanglig' o'tib, "Boburnoma" bo'lib bitiladi. Dunyoda kechayotgan urush-talohlar, zulm-o'ldirishlar, talon-tarojlar qalbini mutasil iztirobga soladi, ruhini g'am dengiziga ko'ktiradi. Afg'oniston qumlarida askarlar yiqilganda U ham yozuv stolidi so'zsiz yaralanaadi. Jenevadagi tinchlik shartnomalari cho'zilganda, uni tahlikaga solgan muddatlar ham uzayadi. Nikaraguda, Bayrutda yuz bergan vayronagarlik va qotilliklardan daftariga qon sachraydi, samalarda jon bergan Muin Bsius hasrati uning ham ko'ngliga mung soladi. Ona ko'z yoshlari timsolida dunyo ko'z yoshlarining mohiyatini anglaydi. Inson dard bilan buyuk ekanini yurakdan his etadi. Butun dunyo vijdonlarini birlashmoqqa chorlaydi.

Doston mana bunday xulosalarni:
Mening ko'z oldimda Vaqt turar faqat —
Butun Insoniyat shaklidagi Vaqt.

Vaqtini insoniyat shaklida tasavvur etish, his etish uchun shiirona yuksak tafakkur va ijodiy taxayyul, tongday toza qalb zarur, yurakda cho'ng dard bo'lmo'g'i kerak. Sirojiddin Sayyid ana shunday zalvorli yelkasiga olgan salohiyatli ijodkor. Shu bois, turli millat shoirlari uning asarlarini o'z tillariga tarjima qilmoqqa ehtiyoj sezayotir. She'rlari qardosh o'lkalarda ham seviz o'qilmoqda.

"Vaqt haykali" kitobini ozarbayjon tiliga mashhur "O'zbek kelayotir!" she'ri muallifi, atoqli shoir va adabiyotshunos Akif Azalp hamda ijodkor va olim Yashar Qosim tarjima qilgan. Kitobdan shoimning inson va jamiyat munosabatlari, hayot va ishq falsafasi, Vatani va xalq muhabbati, tarix va zamon konsepsiyasi bilan bog'liq sara she'rlari, "Saksoninchi yillar" hamda "Tanazzul" dostonlari o'rin olgan. Bu nashr faqat Sirojiddin Sayyidninggina emas, o'zbek she'riyatining ham yutug'i, o'zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari mutasil rivojlanayotgani dalildir. Shoimning eng sara she'rlari va dostonlari o'rin olgan to'plam she'riyat muhiblari ko'ngildan chuqur joy olishi shubhasiz.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati) DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatidan sifati chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-546.
30761 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy